

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

T A R I X F A K U L T E T I

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____

tfn, dotsent V.T.Ishquvatov

2014 yil «__» _____

5140600 «Tarix» ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Shoturayeva Sevara Toshmuratovnaning

**“Qo‘qon xonligining boshqaruv tizimi va uni o‘qitishning talim texnologiyasi”
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrası dotsenti, tarix
fanlari nomzodi Z.Ilxomov _____

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrası mudiri

_____ t.f.n., dots Z.A.Ilxomov

2014 y. «__» _____

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3-b
I-bob. Qo'qon xonligining siyosiy tarixi va markaziy davlat boshqaruv.....	9-b
1.1. Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi jarayonlarining tarixshunoslik masalalari.....	9-b
1.2. Markaziy boshqaruv tizimi- dargoh va devon faoliyati.....	16-b
1.3. Markaziy boshqaruv tizimida unvon va mansablar faoliyati	20-b
II-bob. Qo'qon xonligining ma'muriy boshqaruv tizimi.....	31-b
2.1. Xonlikning ma'muriy bo'linishi va viloyatlar boshqaruvi...	31-b
2.2. Ma'muriy boshqaruv tizimida unvon va mansablar faoliyati	38-b
2.3. Xonlik boshqaruv tizimining Buxoro va Xiva xonligiga nisbatan farqli jihatlari.....	45-b
III-bob. "Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi" mavzusini umum o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi.....	51-b
3.1. Mavzuning darsliklarda yoritilishi ba o'qitishning uslubiy tavsiyalari.....	51-b
3.2. Mavzu yuzasidan bir soatlik dars ishlanma.....	52-b
Xulosa	60-b
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	63-b
Ilovalar.....	67-b

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillikka erishganimizdan boshlab mamlakatimiz hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligini barpo qilish bilan bir qatorda xalqaro maydonda ham o'zining barqaror tashqi va ichki siyosati, buyuk va qadimiy tarixi, takrorlanmas ma'naviy merosi va milliy qadriyatlari bilan dovrug' tarata boshladi. Garchi mustabid sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston tarixi fani to'laqonli tadqiqotini amalga oshira olmagan bo'lsada, o'zining boy tarixiy merosini ko'z qorachig'idek asrab keldi. Bu tarix sahifalari xalqimizning boy o'tmishini bizgacha yetkazib bera olgan qo'lyozma asarlarimiz va xalqimizning xotirasi edi. Ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lgan tarixga yangicha ko'z bilan, xolisona, ilmiy jihatdan hech bir mafkuraviy aqidasiz yondashish imkoniyati bo'ldi. Avvalo, tarixiy xotirasini tiklash, haqqoniy tarixini yaratish vazifasi qo'yildi. "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkani, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi", - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.¹

Mazkur jarayonda o'zbek davlatchiligini tarixi o'rganish, uni xolisona tahlil etish muhim omillaridan biri hisoblanadi. "... o'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi... davlatchiligimizni ilmiy nuqta'i nazardan asoslangan tarixini yaratishdir", - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov²

Albatta yuqorida ta'kidlanganimizdek mustaqillik biz uchun, tariximiz uchun qorong'u sahifalarni yanada oydinroq yoritish imkoniyatini yaratib beradi. O'tgan yaqin yillar oralig'ida ajdodlarimizning yuzlab qo'lyozma asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Respublikamizda va xorijda minglab nusxalarda

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.-b.140.

² Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T: Sharq. 1998- b12.

nashr etildi. Bu ham tariximizning boy o'tmishiga va merosiga ko'rsatilgan ehtirom va e'tirofdir.

O'zbek davlatchiligining uzviy bo'lagi bo'lgan Qo'qon xonligi va uning ma'muriy boshqaruv tizimini ushbu tarixiy qo'lyozma va manbalar asosida aniq dalillarga tayangan holda ochib berish, tahlil qilish tarix fani uchun dolzarb ahamiyatga egadir.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda biz tanlagan bitiruv malakaviy ishining qo'yilgan muammosi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning tarixshunosligi: Qo'qon xonligi tarixi chuqur tadqiq etilgan. Dastlabki tarixchilari tomonidan xonlik tarixining turli sohalari dastlabki tasavvurlar va ayrim to'liq bo'lmagan ma'lumotlar asosida yoritib berilganligi bilan alohida xususiyatga ega. Bunday tarixchilar va tadqiqotchilar qatorida XX asr boshlarigacha ijod qilgan va tarixiy asarlar yozib qoldirgan bir qator rus tarixchilarini ko'rsatib o'tish mumkin. Jumladan xonlik hududiga elchilik bilan kelgan kishilar, xususan F.Nazarov, N.I.Potantin, V.V.Velyaminov-Zernovlarning hisobotlari, A.Makshevlarning³ asarlarini va maqolalarini kiritish mumkin. Bir qator tadqiqotchilar esa xonlik tarixini o'z asarlarida u yoki bu jihatlarini yoritib o'tishga harakat qilganlar. Bunday tadqiqotchilar tarixchilar qatorida V.Bartold, N.Ostroumov, M.A. Terentev, P.P. Ivanov⁴ va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ular o'z asarlarida xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan harbiy bosqinchilik yo'li bilan bosib olingan jarayonlarni yoritib berganlar.

³ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии/ Текст подготовил В.А.Ромодин.- М:Наука. 1968. Потанин Н.И. Записки о Коканском ханстве хорунжего Потанина// Военный журнал.1831.-№ 3-4.- С.1-35. 1830;Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском// ЗИРГО. 1856. Уша муаллиф. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед- Али до Худаярхани.- СПб.1856 Макшеев А.И. Показания сибирских казаков Милюшина и Батарыишкина, бывших в плену у кокандцев с 1849 по 1852 гг.//Вестник РГО.1856.v.-С.29. каранг Махмудов. Ш. Кўкон хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). тарих фан. ном. дисс.- Т. 2007.- 23-24 б.

⁴ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркистана/ Соч. ТII. Ч 2- М: 1963- С. 286-292, Остроумов Н.П. Перевод ярлыка Кокандского хана// ПТКЛА Год 21- й.Т. 1917 й.- С 24-26 Терентьев М.А. Статистические очерки.- СПб. 1874- С 113; П.П. Иваров Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в в .). – М. 1958.- С. 19-20 каранг Ш.Вохидов. «Кукон хонлигида тарихнавислик.» «Академ нашр» . 2010 й

Sho`rolar davriga kelib xonlik tarixini o`rganish borasida tarixshunoslik sohasida bir qator o`zgarishlar yuz berdi. Bunda mualliflar tomonidan xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganligini emas, balki “qo`shib olingan” ligiga urg`u berila boshlandi va bu bilan tarixni buzib ko`rsatish holatlariga yo`l qo`yildi. Bunday holatlarni biz K.Usenbayev, A.Xasanov,⁵ asarlarida kuzatishimiz mumkin.

XX asr oxirlariga kelib Qo`qon xonligini tarixini o`rganish borasida bir qator yangi fikrlar ilgari surila boshlandi. Bunda Rossiya imperiyasi tomonidan xonlikning bosib olinganligi manbalarga asoslanilgan holda yoritila boshlandi. Bunday ma`lumotlarni biz H.Bobobekov, A.O`rinboyev, X.Ziyoyev⁶ hamda boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar masalaning mohiyatiga bo`lgan yondashuv tubdan o`zgarib, endi tarix haqqoniy ravishda ilmiylikka asoslangan holda yoritila boshlandi. Bu davrda yaratilgan ishlarga H.Z.Ziyoyev, H.N.Bobobekov, Sh.H.Vohidov, Z.Ilhomov, V.Ishquvvatov, Sh.Mahmudovlarning⁷ ilmiy ishlarini ko`rsatib o`tish mumkin. H.Z.Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” asari, “Turkiston chor mustamlakasi davrida” kabi asarlar keyingi yillarda nashr etilgan ishlar orasida o`zining mukammalligi bilan alohida o`rin tutadi.

⁵ Хасанов А. Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства... - С 29, Урунбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства. Изв. АНРУзССР. Серия общественных наук. 1957.- № 3 каранг З.А. Илхомов. Кукон хонлиги тарихшунослиги айрим масалалари. Т. 2007.

⁶ Bobobekov H.N.Rossiya tomonidan bosib olinganmi?// Fan va Turmush , -1989,-8-son, O`rta Osiyoga qo`shib olinganmi? //Fan va Turmush, -1989,-10-son, Урунбоев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства// Известия АН УзССР. 1957. № 3- С.33-38. Ziyoyev H Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Т.: Sharq, 1998 каранг Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.- 110 б.

⁷ Ziyoyev H Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Т.: Sharq, 1998, Vohidov Sh. Qo`qon xonligida unvon va mansablar// Sharq yulduzi. 1995.-N-3-4, Ilhomov. Z.A. Aliquli Amirlashkar// O`zbekiston tarixi .1999yil, 3-son, Ishquvvatov. V.T. Qo`qon-Rossiya o`rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi arxiv xujjatlarida.// Pedagogik ta`lim, 2000, 3-son, Mahmudov Sh. Yu. “Qo`qon xonligining ma`muriy boshqaruv tizimi”(1709-1876) Diss. t.f.n-T: 2007

Shuningdek, xonlik tarixi bilan xorijlik bir qator olimlar ham shug'ullanganlar. Bularning xonlik tarixshunosligining to'rtinchi guruhiga kiritish mumkin. Ular orasida bizga ma'lum bo'lgan sifatida D.Berghorn, E.Bekon, R.Konnuest, E.Ollvort, T.Ranovski-Xarmstoun, L.Tillet, D.Xusonlarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.⁸

Mavzunig manbaviy asoslari: XIX asrda O'rta Osiyo muarrixlari tomonidan qo'lyozma asarlari, arxiv xujjatlari, Qo'qon hukmdorlari tomonidan berilgan yorliqlar, inoyatnomalar, XVIII-XIX asrlar davomida xonlikka tashrif buyurgan sayyohatchilar, harbiylar, elchilar, savdogarlar va boshqa shaxslarni esdaliklar va ko'rsatmalari tashkil etadi.

Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning "Shohnomayi Umarxoniy", Dilshodning "Tarixi muhojiron", Muhammad Hakimxonning "Muntaxab ut-Tavorix", Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi Shohruxiy", Mirzo Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul- xavoqin", Abu Ubaydulloning "Xulosat ul-ahvol", Muhammad Solix Toshkandiyning "Tarixi jadidayi Toshkand", Muhammad Yunus Toyibning "Tarixi Alimquli Amirlashkar", Avaz Muhammad Attorning " Tarixi jahonnamoyi", Tojirning " G'aroyibi sipoh", Muhammad Aziz Marg'iloniy " Tarixi Aziziy", Ishoqxon Ibratning " Tarixi Farg'ona", Mulla Olim Maxdum Hojining " Tarixi Turkiston", Mahmud Hakim Yayfoniyning " Xullas at -Tavorix", Muhammad Fozilbekning " Mukammal tarixi Farg'ona", Mullo Muso Sayramiyning " Tarixi Xamidiy " kabi asarlarni keltirish mumkin. Ularda Qo'qon xonligining XVIII- XIX asrlardagi xonlikning tarixi, jumladan, turli hukmdorlar, ular yuritgan ichki va tashqi siyosat masalalari umumiy tarzda o'z ifodasini topgan⁹.

⁸ Barghorn L. Soviet Russian Nationalism.-New York, 1956; Wheeter. The modern history of Central Asia.-London, 1964; E. A. Allworth. Uzbek Literary politics.-New York 1964; E. Bacon. Central Asiens under Russians Rule.-New York, 1966; R. Conguest. Soviet Nationalities in Practice.-London, 1967; L. Tillet. The Great Friendship. Historians on the Non- Russian Nationalities.-North Carolina, 1969. T. Rakovska-Harmstone. Russian and Nationalism Central Asia.-Baltimore, 1970; D. Hooson. The Soviet Union. People and Regions.-California, 1977 va boshqalar. **Каранг: III. Махмудов. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.- 17 б.**

⁹ **Qarang:** SH. Vohidov. Qo'qon tarixnavislik maktabi. T. 2010.

Tadqiqotning davriy chegarasi: bitiruv malakavi ishida Qo`qon xonligiga bag`ishlangan bo`lganligi uchun tadqiqotning davriy chegarasini 1709-1876 yillar etib belgilandi. Qo`qon xonligi siyosiy tarixi va davlat boshqaruv tizimi aynan shu yillardagi tarixi hamda Buxoro va Xiva xonliklaridagi davlat boshqaruv tizimidagi o`xshash va farqli jihatlar yoritilib o`tilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Bitiruv malakaviy ishida Qo`qon xonligi siyosiy tarixi va davlat boshqaruv tizimi tahlilini amalga oshirish asosiy maqsad sifatida qo`yilgan va bunda nafaqat Qo`qon xonligi tarixi, davlat boshqaruv tizimi, Buxoro va Xiva xonliklaridagi o`xshash va farqli jihatlarini yoritib berish ko`zda tutilgan. Ishni bajarishda esa quyidagi jihatlarini amalga oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan:

- “Qo`qon xonligi boshqaruv tizimining tarixshunoslik jarayonlari” haqida ma`lumotlarni yoritish;
- Markaziy boshqaruv tizimida - dargoh va devon faoliyatini tahlil etish;
- “markaziy boshqaruv tizimida unvon va mansablar tavsifini keltirish;
- Xonlik ma`muriy boshqaruvi va viloyatlar boshqaruvining asosiy jihatlarini yoritib berish;
- Ma`muriy boshqaruv tizimida mansab va unvonlar faoliyatini o`rganish;
- Xonlik boshqaruvining Buxoro va Xiva xonligiga nisbatan farqli jihatlarini;
- Mavzu yuzasidan dars ishlanmasini ishlab chiqish;
- Tadqiqot yuzasidan umumiy xulosalarni yoritib berish.

“Qo`qon xonligi boshqaruv tizimi” ning to`laqonli tahlilini amalga oshirish yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarni amalga oshirish asosiy vazifa sifatida bajarilishi ko`zda tutilgan.

**Tadqiqot ob`yekti:** Tadqiqot ob`yektini Qo`qon xonligi davlat boshqaruv tizimini tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti: Tadqiqot predmetini Qo`qon xonligi davlat boshqaruv tizimining ayrim jihatlari va tafsilotlari, undagi Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan o`xshash va farqli jihatlarga oid ma`lumotlarni tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning nazariy metodologik asoslari: Bitiruv malakaviy ishini yozishda O`zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixni o`rganish borasida bildirgan fikrlari, milliy g`oya va mafkuraning eng muhim jihatlari, milliy davlatchiligimiz va ma`naviy merosimizni qayta tiklanishi borasida fikrlar, asarlar va ularda ko`tarilgan g`oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, ob`yektivlik, ilmiylik tamoyillariga asoslangan holda taqqoslash, qiyosiy tadqiqot, xronologik tadqiqot uslublari kabi tadqiqot uslublaridan foydalanildi..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligini bitiruv malakaviy ishi doirasida Qo`qon xonligi davlat boshqaruv tizimi ilmiy jihatdan tahlili tashkil etadi.

Ishning amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishining natijalaridan O`rta Osiyo xonliklari tarixi va davlatchiligi tarixi bo`yicha darsliklar, adabiyotlar, qo`llanmalar yaratishda, Qo`qon xonligi siyosiy tarixi va boshqaruv tizimi bo`yicha ilmiy maqollalar yozishda, tarix xrestomatiyalarini yaratishda, bakalavriatura va magistratura tadqiqot ishlarini amalga oshirishda, shuningdek, O`zbekiston tarixi, O`zbek davlatchiligi tarixi, Manbashunoslik darslarida ma`ruzalar tayyorlashda, seminar mashg`ulotlarini tashkil o`tkazishda, mustaqil ta`limga tayyorgalik ishlarida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy bobni tashkil qiluvchi uchta bob va sakkizta paragraf, dars ishlanmasi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro`yhati, tadqiqot jarayonida qo`llanilgan izohli so`zlar lug`ati hamda ilovalardan tarkib topgan. Ishning umumiy hajmi 74 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. QO'QON XONLIGINING MARKAZIY DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI.

1.1. Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi jarayonlarining tarixshunoslik masalalari.

Qo'qon xonligi 1709 yil Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Farg'ona vodiysining Buxoro xonligidan ajralib chiqishi natijasida vujudga kelgan va 1876 yil Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunga qadar mavjud bo'lgan. Xonlikdagi davlatchilik tamoyillari, boshqaruv tizimi, soliqlar qanday undirilgan va va aholining ijtimoiy himoyasi qay tarzda amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'sha davr haqidagi mahalliy tarixchilari asarlarida, sovet davri adabiyotlarida, mustaqillik davri ilmiy adabiyotlarida xorijlik tadqiqotchlarining asarlaridan o'rganishimiz mumkin.

Qo'qon xonligi tarixini o'rganish XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Hozirgi kungacha xonlik tarixi bo'yicha amalga oshirilgan va yaratilgan ilmiy asarlar hamda ilmiy tadqiqotlarning salohiyati juda katta. O'tgan bir yarim asr mobaynida xonlik tarixini o'rganishda turlicha yondashish va munosabatlar, ayrim vaqtlarda (XX asrning 50-80 yillarida) tarixiy jarayonlar va tarixiy voqelikni ob'ektiv baholamaslik holatlariga yo'l qo'yildi. Xonlik tarixini yoritishdagi bunday munosabat ushbu holni tarixshunoslik nuqta-nazaridan chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

XIX asrdagi xonlikdagi siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy hayot, davlat ma'muriy boshqaruv tizimining ayrim masalalari, xususan, xon huzuridagi Oliy Kengash hamda ba'zi mansablar va mansabdorlar faoliyatiga oid ma'lumotlarni F. Nazarov, H.I.Potantin, V.V.Velyaminov-Zernov¹⁰larning asarlaridan bilishimiz

¹⁰ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии/ Текст подготовил В.А.Ромодин.- М:Наука. 1968. Потанин Н.И. Записки о Коканском ханстве хорунжего Потанина// Военный журнал.1831.-№ 3-4.- С.1-35. 1830;Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском// ЗИРГО. 1856. Уша муаллиф. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед- Али до Худауархани.- СПб.1856 **Қаранг.** Махмудов. III. Қо'қон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.- 23-24- 67 б

mumkin. Lekin bu asarlar tavsifiy harakterga ega bo'lib, ularda keltirilgan ma'lumotlar tomonidan umuman tahlil qilinmagan.

Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yozgan V.Grigoriyev, A.Kun, A.Xoroshxin, A.Geyns, N.Pantusov, S.Abdug'afforov, A.Zimin, N.Ostroumov, Z. Validov¹¹ va boshqalar asarlarida XIX asrda xonlikdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, davlatdagi ma'muriy-boshqaruv tizimining ayrim masalalari, xususan, ba'zi mansablar va mansabdorlar faoliyatiga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan

Toshkent boshqaruv tizimiga oid ayrim fikrlarni keltirgan A.Geynsning asari Qo'qon xonligining mahalliy boshqaruv tizimi haqida muayyan tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Biroq muallif o'z asarida asosan Toshkent boshqaruv tizimiga to'xtalib, Qo'qon xonligidagi boshqaruv tizimining umumiy holatini tahlil qilmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan rus sharqshunoslaridan V.Nalivkinning asarlari muhim ahamiyatga ega. V.Nalivkin mahalliy tarixnavislarning asarlari asosida "Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva" nomli asar yozgan. U o'rganilayotgan masalaning ba'zi jihatlarini to'g'risida muhim fikrlarni bayon etgan. Xususan, u xonlikning ma'muriy bo'linishi to'g'risida " ... viloyatlarga, viloyatlar beklarga, bekliliklar esa o'z navbatida aminlik yoki oqsoqolliklarga bo'lib idora etilgan", -deb boshqa mualliflardan farqli o'laroq, ancha aniq ma'lumotlar beradi.¹²

¹¹ Григорьев. В. Современные монеты Кокандского ханства// Труды Восточного отделения императорского археологического общества. Вып. 2 Ч. 2- СПб. 1856, Кун.А. Некоторые сведения о Ферганской долине Военный сборник- СПб. 1876-№ 4- С 41-448. Хорошхин А.П. Очерки Кокандского ханства // Туркестанский сборник Т. 116-СПб. 1876- С 39-51 Гейнс А. Управление Ташкентом при Кокандском владичестве// Собрание литературных трудов. Т. II – СПб. 1898.- С. 431-491. Пантусов Н. Податные сборы в Коканде // Туркестанский сборник 1876.- № 13. Зимин А. Первые шаги Алим- хана на государственном пропоре // Протоколы заседаний и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии. Т. ПТКЛ. Год 17 й. 1913.- С 101-108. Валидов З. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII- го столетия// ПТКЛ год 20-й вып.2.- Т. 1916.- С 68-113. Каранг Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.- 6-б

¹² Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства.. –С 208.1886

XIX asr oxirlarida yashagan Sattorxon Abdulg'afforovning ¹³ Qo'qon xonligining rus istilosi arafasidagi ichki holatiga bag'ishlangan maqolasida xonlikning aynan ma'muriy boshqaruv tizimi yoritilgan. Ushbu maqolada viloyat hokimining ish yuritishi hamda mahalliy boshqaruvning turli sohalardagi ish yuritish uslublarini tilga olgan.

Qo'qon xonligi boshqaruv tizimini o'rganishda N.Ostroumovning asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi Xudoyorxonning hayoti va faoliyatini o'rganib, ushbu hukmdor davrida xonlikda mavjud boshqaruv tizimiga oid ba'zi ma'lumotlarni qayd etgan.¹⁴ N.Ostroumov Qo'qonning so'nggi hukmdori Nasriddinxon(1876 y) tomonidan mehtar mansabiga tayinlanish to'g'risida berilgan yorliqlarning tarjimasi bilan ham shug'ullanib, ularni ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilishga harakat qilgan.¹⁵

Z.Validov o'z maqolasida Qo'qonning dastlabki hukmdorlari tomonidan berilgan 60 dan ziyod yorliqlar haqida ma'lumotlar beradi.¹⁶

XIX asrdagi siyosiy –ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etgan bu mualliflarning asarlarida Qo'qon xonligi davlat boshqaruvi to'g'risida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Lekin bu mualliflar asarlarida xonlikdagi murakkab boshqaruv tizimining nozik jihatlarini angay olmagan, ular masalaning tub mohiyatini anglamaganlari tufayli Qo'qon xonligidagi boshqaruv tizimining muhim jihatlarini ko'ra olmaganliklari sababli ,ayrim xato xulosalar chiqarishiga olib kelgan. Xususan, ular xonlikning ma'muriy –hududiy birliklari bo'lgan" viloyat"ning " beklik" bilan farqli tomonlarini anglamaganlar.

XX asrning 60-80 yillarida A.Xasanov, A.Juvonmardiyev, L.Troiskaya, N.Nabiyev, F.G'afforov, V.M.Ploskix, T.Q.Beysimbiyev, H.N.Bobobekov¹⁷ kabi

¹³ Саттархан Абдул- Гафаров Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его русскими // Туркестанские ведомости. 1892 –N-26,29,36.

¹⁴ Остроумов Н.П. Перевод ярлика Кокандского хана//ПТКЛИА 21—й.Т.,1917.-С.24-26

¹⁵ Остроумов Перевод ярлика Сеид Муха ммед Насриддин Бахадур хана о назначении МуллиАбдуд- Каюма сина Ишана Агаева на должность Мехтера //ПТКЛИА 20-йТ.:2.Т.:1916.-с.157-158.

¹⁶ Валидов З. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII-го столетия //ПТКЛИА 20-й.2.Т.:1916,-С.68-118.

¹⁷ Хасанов А.Х. Народные движения в Киргизии в Период Кокандского ханства.- М. Наука. 1969 б-12. Плоских В.М. Киргизы и Кокандского ханство. –Фрунзе. Илим. 1977 б- 11. Троицкая А. Л.

olimlar yozma manba ma'lumotlari asosida Qo'qon xonligi tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib bordilar. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida xonlikning ma'muriy boshqaruviga oid ayrim ma'lumotlar ham keltirilib o'tilgan.

Bu davrda Qo'qon xonligi tarixi masalalari bilan atroflicha shug'ullangan tadqiqotchilardan biri A.L.Troiskayadir. Qo'qon xonlari arxivining katalogini tuzgan va mazkur katalogga kirgan xujjatlar asosida maqola va asarlar yaratgan bu olimaning¹⁸ tadqiqotlarida xonlikning moliya tizimi, ma'muriy boshqaruvda muhim o'rinlarni egallagan sarkor va mirzaboshilarning faoliyatiga doir ma'lumotlarni qayd etgan.

XIX asrning 50-70 yillarda Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda R.N.Nabiyevning asarlari katta rol o'ynaydi. Bu asarda muallif Qo'qonning so'nggi hukmdori Hudoyorxonning olib borgan siyosatini yozma manbalar asosida tahlil qilgan. Asarda nafaqat Hudoyorxon, balki Sheralixon (1842-1845), Mallaxon (1858-1862), Sulton Saidxon (1863-1865) lar hukmronligi davrida kechgan siyosiy jarayonlar hamda XIX asrning 50-70 yillarida xonlik ma'muriy boshqaruv tizimining muhim tomonlaridan biri bo'lgan sarkorlik mohiyatini keng ochib bergan.¹⁹

Xonlikning mahalliy boshqaruv tizimi undagi ish yuritish tartiblarining ba'zi jihatlarini to'g'risida T.Q.Beysimbiyevning asar va maqolalari muhim ahamiyatga ega. Uning "Tarixi Shaxruxi"-kak istoricheskiy istochnik" asarida Qo'qon tarixchisi Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi Shoxruxiy" asarini manbashunoslik yuzasidan keng tahlil qilgan. Asarda Qo'qon xonligi ma'muriy boshqaruv tizimi haqida ayrim mulohazalar qayd etilgan.

Каталог архива Кокандского ханов XIX века.... С.71. Жуванмардиев XVI_- XIX асрларда Фарғонада ер – сув масалаларига доир. Т. Фан 1965 б- 9. Гаффоров Ф. Россия билан Кукон хонлиги уртасидаги иктисодий ва сиёсий алоқалар . дисс- Т 1970. Б-9. Плоских В. М. Киргизии и Кокандское ханство.- Фрунзе. Илим. 1977. Бейсембиев Т.К. Духовенство в политическауа жизни в Кокандском ханстве в XVIII-XIX в.в// М 1982. Хуршут. Е. «Мунтахаб ат- таворих» ва унинг манбалари // Узбекистонда ижтимоий фанлар. 1986. №.12 қаранг. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном. дисс.- Т. 2007.- 9-10 б

¹⁸ Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандского ханов XIX века.... С.71 қаранг. Махмудов. Ш. Кукон хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.

¹⁹ Набиев Р. Из истории Кокандского ханства... С. 230. қаранг. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.11 б.

Qo'qon xonligining tarixini o'rganishda A. Xasanov va V.Ploskixlar²⁰ ham katta hissa qo'shdilar. Ular o'z asarlarida xonlikning qirg'izlar yashaydigan hududlarning ma'muriy-hududiy bo'linishi hamda mazkur hududlarning boshqarishda mahalliy aholining udumlari hisobga olinganligi ko'rsatib berganlar.

Qo'qon xonligi viloyatlaridan biri bo'lgan O'ratepaning ma'muriy bo'linishi va idora etilishining ba'zi jihatlari hamda bu yerda bo'lib o'tgan jarayonlarning o'ziga ayrim xususiyatlari A.Muxtorovning²¹ tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining turli davrlari, xususan, xonliklar davri tarixi ham yangi yondashuvlar asosida o'rganila boshladi. Bu davrga oid O'zR FA Tarix instituti tomonidan " O'zbekiston tarixi" (3-jild) nashr etidi. Kitobning birinchi jildida Qo'qon xonligi tarixi batafsil yoritib berilgan.

O'zbekiston hududida qadim zamonlardan beri shakllanib va rivojlanib kelgan milliy davlatchilikning uzviy davomchisi bo'lgan Qo'qon xonligida kechgan jarayonlar haqida H.N.Bobobekov, Sh.H.Vohidov, H.Z.Ziyoyev, G.A.Agzamova, D.Sangirova, V.T.Ishquvvatov, Z.A.Ilhomov, Muhammad Yahyoxon²² kabi tadqiqotchilar asar va maqolalar yozdilar. Ularda xonlik tarixining turli masalalari, xususan, Turkiston xalqlari Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashi, Qo'qon xonligida xalq harakatlari va ularning ijtimoiy-siyosiy asoslari, turli tarixiy shaxslar, jumladan, Aliquli Amirlashkarning mamlakat siyosiy hayotidagi o'rni, xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ba'zi masalalari, ma'muriy boshqaruv tizimining ayrim muammolari, Qo'qon xonligi manbashunosligi masalalarini va o'zlarining ilmiy mulohazalarini berganlar. Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha yirik mutaxassis H.N.Bobobekovning bu davrda

²⁰ Хасанов А.Х. Народные движения в Киргизии в Период Кокандского ханства.- М. Наука. 1969 б.- 57. Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство.- Фрунзе. Илим. 1977. каранг. Махмудов. Ш. Кулон хонлигининг ма'мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.136

²¹ Мухторов А. Очерк истории Ура- Тюбинского владения в XIX в. -Душанбе. 1964 каранг. Махмудов. Ш. Кулон хонлигининг ма'мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.11 б.

²² Бобобеков Х.Н.Кулон тарихи.- Т. Фан. 1996. Вохидов Ш.Сочинение Фазли Фергани «Умарнома»//Адабий мерос 1995. -№3.- Б28-33. Зиёев Х. Туркистонда Россия тожовуси ва хукмронлигига қарши қураш. -Т. 1998. Агзамова Г.А.Раиснинг шаҳарлар ҳаётидаги урни// Ҳаёт ва қонун. 1999-№ 11-12.

chop etilgan ” Qo’qon tarixi” asarida xonlik tarixining ko’p muammolarini tahlil qilish bilan birga xonlikdagi ayrim mansablar va soliq tizimiga oid ma’lumotlar keltirilgan.²³

Qo’qon tarixnavislik maktabi vakillari tomonidan yaratilgan xonlik tarixiga oid asarlar ustida manbashunoslik tadqiqotlarini olib borgan Sh.H.Vohidov ham o’z tadqiqotlarida Qo’qon xonligi davrida o’zbek davlatchiligining holatini ilmiy tahlil etishga imkon yaratuvchi tarixiy faktlarni berdi. Ayniqsa, uning R.Xoliqova bilan” Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan”, deb nomlangan risolasi mavzusini o’rganishda muhim ahamiyatga ega²⁴

H.Z.Ziyoyev Qo’qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga bag’ishlangan asarida bu jarayonning muhim jihatlarini ko’rsatib berish bilan birga xonlik boshqaruv tizimining ayrim tomonlariga ham e’tibor qaratdi.²⁵

Shuningdek, G.A.Agzamovaning O’rta Osiyo xonliklari, xususan,Qo’qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlarda shaharlar hayoti, ularda mavjud ma’muriy – boshqaruv tizimi va bu tizimning turli bo’g’inlarini egallagan mansabdorlar, xususan, rais (muxtasib)lar hayoti, faoliyati haqida muayyan fikrlar bayon etilgan.²⁶

Bu davrda Qirg’izistonlik,Qozog’istonlik va Rossiyalik olimlar T.K.Beysimbiyev, Yu.F.Lunyov,V. Ploskiy²⁷lar ham xonlik tarixiga oid tadqiqotlar olib bordilar. T.K.Beysimbiyev Muhammad Yunus Toib qalamiga mansub ” Tarixi Alimquli Amirlashkar” asari va boshqa manbarlarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib,xonlikda mavjud mansablarni izohlagan. U Qo’qon xonligi davrida janubiy Qozog’istonning yo’qori ma’muriyati ga bag’ishlangan maqolasida 1809-1865 yillarda Toshkent viloyati va uning shimoliy hududlarining idora etilishi,

²³ Бобобеков Х.Н.Кукон тарихи.- Т. Фан. 1996. Вохидов Ш.Сочинение Фазли Фергани «Умарнома»//Адабий мерос 1995. -№3.- Б 13.

²⁴ Вохидов Ш. Холиков.Р Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX-XX) –Т Янги аспр авлоди. 2006-71 б.

²⁵ Зиёев Х. туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш....- б. 33

²⁶ Агзамов Г. А. Раиснинг шаҳарлар ҳаётидаги урни// Хаёт ва қонун. 1999-№ 11-12-б 81-83

²⁷ Бейсембиев Т.К. Высшая администрация Ташкента и уга Казахстана в период Кокандского ханства. 1809-1865гг...- С291-313. Плоский В. Киргизии и Кокандского ханство... С. 116 қаранг. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг ма’мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.56 б.

mazkur viloyatga tayinlangan hokimlar hamda mahalliy boshqaruv tizimida asosiy vazifalar zimmasiga yuklangan botirboshi va sarkor mansablarini tahlil qilgan.

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda xorijiy tadqiqotchilar ham o'z hissasini qo'shganlar. Qo'qon tarixi bo'yicha M.Xoldsvort va B.Mans²⁸ tomonidan ingliz tilida chop etilgan asarlarda xonlikning siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy hayoti ma'muriy boshqaruv tizimi yuzasidan mulohazalarini keltirgan. Biroq, ularning ushbu mavzuga oid mulohazalarida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yganlar. Xususan, M.Xoldsvort xonlikning davriy chegarasini 1798 yildan 1876 yilga qadar ming sulolasi qo'lida bo'lganligi, xonlik tarkibiga Marg'ilon, Qo'qon va Namangan viloyatlari kirgan deb noto'g'ri mulohaza yuritgan.²⁹ B.Mans ham shunday mulohazani ilgari surdi.³⁰ Ayrim ingliz tadqiqotchilari, jumladan, Yu.Bregel, E.Ollvort va S.Livay esa bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib, tarixiy jarayonlarni tog'ri keltirishga harakat qildi. Xususan, Yu.Bregel va E.Ollvortlar M.Xoldsvort hamda B.Mansdan farqli ravishda xonlikning tashkil topishi 1710 yilda sodir bo'lganligini nisbatan to'g'ri ko'rsatishdi. S.Livay esa xonlikni 1709 yilda tashkil topganligini to'g'ri ko'rsatgan.³¹

Biroq bu asarlarda Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan.

²⁸ Holdswort M Turkestan in the nineteenth century. A. Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. -Oxford:1959.-P.5 . Central Asia in historical perspective. Edited by Beatrice Mans.-p.11
каранг. Махмудов. III. Куканд хонлигининг ма'мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.16 б.

²⁹ Holdswort M Turkestan in the nineteenth century. A. Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. -Oxford:1959.-P.5

³⁰ Central Asia in historical perspective. Edited by Beatrice Mans.-p.11 Bregel Y. Central Asia. VII. In the 12 th-13 th/18 -19 th //Encyclopedia iranica.-VY fas2.P..1995. Allworth .E. The modern Uzbeks. Form the fourteenth to the present. -Stanford.1990.-p.14. Scott .C.Levi. The Fergana Valley at the Crossroads of World History: The Rise of Khoqand, 1709-1822//Journal of Global History.2007. Volume2.N-2 Holdswort.M. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. -Oxford:1959 Central Asia in historical perspective. Edited by Beatrice Mans. -Oxford: West view press, 1994.-245p. каранг. Махмудов. III. Куканд хонлигининг ма'мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.17 б.

1.2 Markaziy boshqaruv tizimi - dargoh va devon faoliyati.

O'rta Osiyo xonliklari markaziy boshqaruv tizimi dargoh va devondan iborat bo'lgan.

Dargoh – Hukmdorning eng oliy davlat idorasi, devonlar esa ma'lum bir doiradagi vazifalarni boshqaruvchi vazirliklar hisoblangan. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar davriga kelib, bunday boshqaruv tizimi butunlay o'zgardi. A'zamat Ziyoning fikricha, bu davrda “ ... mazkur tizim (dargoh va devonlar) tugatilgan va ijroiya vazifalari to'g'ridan- to'g'ri saroydagi u yoki bu lavozimda yoki biron bir arbob faoliyatida biriktirilgan” edi.³² Demak, turli amaldorlar faoliyat yuritgan maxsus vazirliklar zimmasidagi vazifalarni birgina shaxsga yuklatish bilan devonlar faoliyatiga chek qo'yilgan.

Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining zaiflashuvi oqibatida vujudga kelgan Qo'qon xonligi davlat boshqaruvida ham aynan shu tizim asosida shakllangan. Barchamizga ma'lumki, hamma zamonlarda davlat boshqaruvida markaziy idoralar asosiy rol ni bajargan. Shu ma'noda Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimi o'ziga xos jihatlari bilan ham ajralib turadi. Qo'qon xonligida hukumat qarorgohi xon o'rdasida joylashgan bo'lib, mamlakat hayotidagi muhim barcha masalalar ushbu saroyda hal qilingan. Markaziy boshqaruv tizimi ham butunlay o'rdada mujassamlashgan. Unda faoliyat yurituvchi barcha amaldorlar xon huzuridagi Oliy Kengash tarkibiga kiritilgan. Markaziy boshqaruv oliy hukmdor, keyin maslahat organi bo'lgan kengash, undan so'ng ijroiya vazifalardagi ma'sul amaldorlardan iborat bo'lgan. Davlat o'zining ichki va tashqi siyosati, jamiyat bilan olib boriladigan aloqalar asrlar davomida shakllangan, murakkab boshqaruv organi Kengashga tayanib amalga oshirilgan. Bu Kengash “ maslahat”, “ xos majlis”, “ mashravat”, “majlisi Sultoniyy” yuritilgan. Qo'qon hukmdorlari huzuridagi kengash haqida XIX asrda xonlikda bo'lgan rus zobitlari, elchi, va sayyohlari, kengashda ko'rilgan masalalari haqida esa mahalliy mualliflar tomonidan muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan.

³² Зиё.А. Ўзбек давлатчилиқ тарихи....-Б.295.

1813-1814 yillarda Qo'qonda bo'lgan Sibir korpusi tarjimoni F.Nazarov o'zining esdaliklarida kengash haqida qiziqarli ma'lumot keltirilgan. Uning yozishicha, “ hukmdorning yuqori kengashini tashkil etuvchi bir qator vazirlar va davlat amaldorlari taxti-ravon yoniga solingan gilamlar ustida darajalariga ko'ra o'tirar edilar”.³³F.Nazarovning kengash haqidagi bergan ushbu ma'lumoti nafaqat Qo'qon xonligiga,balki Markaziy Osiyoda o'sha davrda mavjud barcha davlatlarga xosdir.

Qo'qon xonligidagi Oliy Kengash tarkibiga markaziy davlat boshqaruvidagi barcha mansabdorlar kirgan. Qo'qon xonligining bosh vaziri bo'lgan mingboshi hamda oliy diniy mansabdor shayxulislom kengashning doimiy a'zosi bo'lgan. Shuningdek, xonlikning bosh qozisi, ya'ni qozikalon va harbiy ishlar bo'yicha ikki sudya-qozi askar ham kengashda ishtirok etgan.

XIX asrning 30-yillariga kelib, markaziy davlat boshqaruvida muhim vazifalar qatoriga dasturxonchi va risolachi ham kengashi a'zosi bo'lganligini V.V.Velyaminov-Zernov asarida qayd etilgan.

Markazlashgan davlat tuzishda bir qator islohatlarni amalga oshirgan Umarxon(1810-1822) bir necha ulamolarga ham kengashda ishtirok etish uchun joy bergan. Bu haqda “ Tarixi Shohruxiy” asarida “ ...hukmi shar'iyni joriy aylab,har vaqt amirning majlisida ulamoyi muhaqqiqlar (haqiqat izlovchilar) bo'lib”,-deya qayd etilgan va bir qator yuqori mavqeiga ega bo'lgan din peshvolari va davlat arboblari keltirib o'tilgan.

XIX asr tadqiqotchisi V.Grigoryevning ma'lumotiga ko'ra,Xudoyorxonning birinchi hukmdorligida kengash to'rtta qipchoqdan iborat bo'lgan.³⁴ Musulmonqul yosh Xudoyorxonni taxtga o'tqazgandan so'ng otaliq unvoniga ega bo'lib,davlat boshqaruvini to'laligicha qo'lga kiritadi. U markaziy davlat boshqaruvidagi muhim vazifalar parvonachi, dasturxonchi, risolachi kabi mansablarga

³³ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии/ Текст подготовил В.А.Ромодин.- М:Наука. 1968.68 б Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском// ЗИРГО. 1856. Уша муаллиф. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед- Али до Худаяр- хани.- СПб.1856 20 каранг. Зиё. А. Узбек давлатчиликлари тарихи. Б- 295-297.

³⁴ Григоров В. Современные монеты Кокандского ханства// Труды Восточного отделения императорского археологического общества. 1856.2. 2-СПб.-С.116

qipchoqlardan tayinlandi. Xudoyorxon hukmronligining dastlabki yillarida Musulmonquli ushbu mansabdorlar bilan kengash olib borgan. XIX asrning 60-yillariga kelib, kengash kengaytirilib, markaziy davlat boshqaruvidagi 12 kishidan iborat mansabdorlar bilan kengash tarkibiga kiritiladi.³⁵ Ushbu ma'lumotlar Qo'qon xonligining har bir hukmdori davrida kengash a'zolari, ularning tarkibi o'zgarib turganligidan dalolat beradi. Bunda vaziyat turli sabablarga ko'ra yuzaga kelardi. Ba'zi paytlarda xonlik markaziy boshqaruvidagi muhim mansablarni egallagan qo'shbegi yoki parvonachi kabi mansabdorlar biror viloyatga hokim etib tayinlanganda oliy hukmdor huzuridagi Oliy Kengashda ularning o'rnini vaqtinchalik bo'sh turgan. Bunday hollarda ularning vazifasini bir amaldor bajaradi, ya'ni uning zimmasiga ikki turdagi vazifani bajarish yuklatilgan.

“Ansob us- salotin va tavorix ul-xavoqin” asarida Abdukarimbiy huzurida kengash mavjud bo'lganligi tasdiqlanib, bu kengashda “ umaro va fuzolalar pinxoniy maslaxat”³⁶ qilishlari va muayyan masalalar yuzasidan qaror chiqarilgani bayon etilgan.

Muhammad Hakim Yayfoni ham Qo'qon hukmdorlari davlat ahamiyatiga molik masalalarni hal qilishda kengashga tayanganligini qayd etgan. Erdonabiy(II- davri 1753-1762) davlat boshqaruvida har qanday masalalarni hal qilishda har doim kengashga tayanganligini keltirgan.³⁷

Shularga asoslanib, xonlikda Umarxon davrida emas, balki dastlabki hukmdorlari huzurida ham davlatning ichki va tashqi masalalarini hal qilishda maxsus kengash bo'lgan deyish mumkin. Hukmdorlar davlat boshqaruvida ijobiy islohatlar olib borishga intilganlar. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy- ma'rifiy hayot va davlatning tashqi aloqalari masalalarida salohiyatli mansabdorlarning maslahatlari hukmdorlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo'qon hukmdorlarining kengash bilan ayrim masalalari yuzasidan maslahat qilgani haqidagi Avaz Muhammad Attorning “ Tarixi Jahonnamoyi” asaridan

³⁵Кун. А. Очерки Коканского ханства// Туркестанский сборник,Т:23-С.65

³⁶Мирзо Олим Мушриф .Ансобус –салотин...-б.17

³⁷ Мухаммад Хаким Яйфоний “ Хулосат ут-таворих ”...-б.7 қаранг. Махмудов. Ш. Қуканд хонлигининг ма'мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007 70 б.

topish mumkin. Uning yozishicha, Buxoro amirligi viloyati bo'lgan Shaxrisabz Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng uning hokimi Bobobek Qo'qonga qarab yo'l oladi. Bu xabarni eshitgan Xudoyorxon tang ahvolda qoladi va Bobobekni Qo'qonda qoldirish yoki Qoshg'arga o'tkazib yuborish masalasida markaziy boshqaruv tizimidagi mansabdorlar bilan maslahat qiladi.³⁸

Qo'qon xonligi hukmdorlari uchun kengash faoliyati va qarori muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'qon xonligida hokimiyat tepasida oliy hukmdor – xon turgan va Oliy Kengashning markaziy figurasi hisoblangan. Yangi hukmdor, hukmron doira vakillari tayinlanishida kengashning roli katta bo'lgan. Qo'qon xonligida davlat boshqaruv tizimiga turli shaxslarni mansabga tayinlash, ularni mansabga tayinlash vaqtida o'tkaziladigan marosim va udumlar ham o'zbek davlatchiligi qadimiy an'analari bilan bog'liq bo'lgan. Davlat boshqaruvida muhim o'rin tutgan udumlardan biri oliy hukmdorni tayinlash, ya'ni **“xon ko'tarish”** marosimi bo'lib, bu marosim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. “Xon ko'tarish” marosimi aniq bir tartiblar asosida va doirasida amalga oshirilgan. O'rta Osiyo xonliklarida oliy hukmdorni oq kigizga o'tkazib, xon ko'tarish tadbiri uzoq vaqtdan qo'llanib kelingan. Ushbu marosim haqida “ Tarixi Turkiston” asarida ma'lumotlar keltirilgan. Asar muallifining yozishicha Umarxonning (1810-1822) taxtga o'tqazish marosimi quyidagicha kechgan: “ Umarxonni o'zbek xonlari rasmicha oq namadga solib, qorilar “Anna fattahna” surasini o'qib, ko'tarib, Farg'ona taxtiga o'tqazib, tamomi jam bo'lgan xaloyiqlar tahniyat va muborakbod ovozasini arshu a'loga yetkurubdurlar ”.³⁹

“Xon ko'tarish” marosimida oq kigizning to'rt uchini jamiyatning turli vakillari ushlab turganlar.

Xonlik boshqaruv tizimida ham mansabga tayinlanish turli tartiblarda amalga oshirilganligini ko'rish mumkin. Aksariyat hollarda yangi tayinlangan mansabdorga kimxob to'n kiydirilib, oliy hukmdorning muhri bosilgan yorliq berilgan. Qo'qon xonligida boshqa xonliklardan farqli o'laroq faqat **Xudaychi**

³⁸ Avaz Muhammad Attor . Tarixi Jahonnamoyi//Sharq yulduzi1991.-N-8-B.137

³⁹ Mullo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston...-b.36-37.

mansabiga tayinlanish o'zgacha usulda bo'lgan. Xudaychi mansabiga tayinlanayotgan kishiga kimxob to'n va yorliqdan tashqari oltin xassa ham berilgan. Buni " Tarixi Shoxruxiy" asaridagi " Muhammad Norxo'ja tojikni boamali xudaychiga sarafroz qilib, qo'lig'a oltin aso berdilar", - degan ma'lumotlardan bilish mumkin.⁴⁰

Shunday qilib, Qo'qon hukmdorlari o'z ichki va tashqi siyosatini o'ziga xos organi – Oliy Kengash asosida amalga oshirgan. Bu organ xonlik tashkil topgan davrlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelganligi, ayrim tarixiy davrlar va sharoitlarda uning faoliyati yanada yo'qori bosqichga ko'tarildi yoki hukmronlikning avtoritar usullarni kuchli qo'llagan hukmdorlar davrida esa imkoniyat doirasi yanada toraydi. Kengash tarkibida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xonlik boshqaruv tizimidagi maslahat organi – Oliy Kengashning mavjudligi Qo'qon hukmdorlarining xonlikni tarixiy vorisiylik va o'zbek davlatchiligi an'analari asosida boshqarishiga olib keldi.

1.3 Markaziy boshqaruvi tizimida unvon va mansablar faoliyati.

Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimi Buxoro va Xiva xonliklari boshqaruv tizimiga nisbatan kam o'rganilgan. Qo'qon tarixining u yoki bu masalalariga doir tadqiqotlarda xonlik boshqaruvining umumiy holatda o'rganib kelingan. Biroq ularda xonlik boshqaruv tizimi to'liq aks ettirilmagan. Xonlikning boshqaruv tizimi va unda faoliyat yuritgan mansablar va mansabdorlar to'g'risida o'sha davrda yaratilgan manbalarda keltirilgan. Bu ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish orqali mazkur masalaga oydinlik kiritish mumkin.

Qo'qon xonligida davlatning ma'muriy boshqaruv tizimida muhim mansablarni egallagan amaldorlarni ikki toifaga bo'lish mumkin. Bular dunyoviy hamda diniy amallar egalari bo'lib, dunyoviy ishlarga ma'sul amaldorlar "**umaro**", diniy vazifadagilar "**ulamo**" deb yuritilgan. Shuning uchun ham manbalarda

⁴⁰ III. Атажанов, В. Ишқувватов. З. А.Илхомов. Узбек хонликлари тарихшунослиги. Т. 2011 Б.29

davlatning ma'muriy boshqaruv tizimida "umaro" va "ulamo" atamaları ko'p uchraydi.

Muhammad Hakimxon to'ra " Muntaxab ut- tavorix" asarida xonlik markaziy boshqaruvida beshta vazir bo'lganligini, bu vazirlar XIX asrning o'ninchi yillariga qadar xonlikning boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohatlarni amalga oshirishga ma'sul bo'lganligini, vazirlardan biri devonbegi ed deb qayd etadi.⁴¹ Bunday ma'lumot boshqa manbalarda uchramaydi. Mazkur ma'lumotdan davlatning markaziy boshqaruv tizimida beshta asosiy vazir bo'lganligi va ulardan biri devonbegi mansabini egallaganligi ma'lum bo'ladi. Xonlik markaziy boshqaruv tizimidagi besh vazirdan yana biri qushbegi bo'lib, bu xususida ham «Muntaxab ut-tavorix » asarida ma'lumot beriladi⁴². Fikrimizcha, uchinchi vazir inoq unvoniga ega bo'lgan mansabdorlar bo'lsa kerak.⁴³ Olimxon 1806 yilning may oyida O'ratepaga qilgan harbiy yurishida g'alabaga erishib, mazkur viloyatga Qadam inoqni hokim etib tayinlaydi. Hukmdorlar markaziy boshqaruvga yuqori mavqeidagi va o'ziga yaqin mansabdorlarni viloyatlarga hokim etib tayinlangan.

XIX asrning boshlaridagi Qo'qon xonligiga oid asarlarda shu davrgacha bo'lgan tarixiy jarayonlar, taxtga o'tirgan hukmdorlar va ularning davlat boshqaruvida olib borgan faoliyatlari yoritilgan. Biroq ularda mansab va mansabdorlar nomi XIX asrning o'ninchi yillaridan keyingi davrlarda yoritilganligidan nisbatan kam uchraydi. Shuning uchun ham xonlik markaziy boshqaruv tizimini, xususan, Muhammad Hakimxon To'ra e'tirof etgan besh vazirdan ayrimlarining qanday mansab va unvonga ega bo'lganligini hamda ularga qanday vazifalar yuklatilganligini aniqlash qiyin.

XIX asrning boshlariga kelib, Qo'qon xonligini idora etishda bir qator islohatlar amalga oshirildi. Olimxonning (1798-1810) mamlakat hududini kengaytirish borasida olib borgan harbiy harakatlarini Umarxon (1810-1822)

⁴¹ Devonbegi- xon devonining sardori qarang: Vohidov SH, Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari)-T: Yangi asr avlodi, 2006-b.15

⁴² O'sha joyda-227a varaq

⁴³ Mahmudov Sh.Y. "Qo'qon xonligining ma'muriy boshqaruv tizimi"(1709-1876) Diss.t.f.n-T:2007

davom ettirib, markazlashgan davlatni kuchaytirishga harakat qildi. Umarxon taxtga o'tirgan yilidan boshlab savdo diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yib, markaziy hokimiyatda bir qator yangi vazifa va mansablarni joriy qildi. "Muntaxab ut-tavorix" asarida Qo'qon xonlari Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronlik qilgan davrni kengroq yoritilgan va xonlik markaziy boshqaruviga oid bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra, davlat boshqaruvidagi turli mansab va amallarga oliy hukmdorni buyrug'i bilan turli amaldorlar tayinlangan. Buni asar muallifi 1815 yilda Umarxon bir necha shaxslarni sadr, devonbegi, mirzaboshi, qushbegi, parvonachi", - etib tayinlaganligini keltirib o'tgan.

Bular haqida Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimidagi mansabdorlarning faoliyatini o'rganish orqali oydinlik kiritish mumkin.

Davlat boshqaruvida oliy hukmdordan keying o'rinda bosh vazir turgan, u **mingboshi** nomi bilan atalgan. Qo'qon xonligi bosh vaziri bo'lgan mingboshi va uning faoliyati xususida V. Nalivkin, "...ushbu amaldor davlatning barcha ichki ishlarini boshqarib, ... shu bilan birga tashqi siyosiy ishlarda ham xonning bosh maslahatchisi bo'lgan.",⁴⁴ - deb yozadi.

Shu o'rinda xonlik tarixiga oid manbalarda Umarxon davrigacha mingboshi nomi uchramaydi. Bu mansab Umarxon tomonidan ta'sis etilib, 1810 yilda unga Shohi Marg'iloniy ismli shaxs tayinlanganligi bir necha manbalardan ma'lum.⁴⁵

Lekin bu bilan Qo'qon xonligida, Umarxon hukmronligiga qadar bosh vazir vazifasini bajaradigan mansabdor bo'lmagan degan xulosaga kelmaslik kerak. "Muntaxab ut-tavorix" asarida keltirilgan Norbo'tabiy hukmronligi davrida bosh vazir to'g'risidagi ma'lumot bu masalaga oydinlik kiritadi. Mazkur asarda Xo'jand viloyati xokimi Abdurahmon Bahodirning qo'shbegi mansabida faoliyat yuritgan ukasi Norbo'tabiyning bosh vaziri bo'lganligiga ishora qilinadi.

⁴⁴ Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства С.112

⁴⁵ Mulla Olim Mahdum Hoji Tarixi Turkiston...-b.37. Mahmud Hakim Yayfoni. "Xullas ut-tavorix"...b.26 қаранг. Махмудов, Ш. Куқанд хонлигининг ма'мурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007 77 б.

Muarrix tomonidan Abdurahmon Bahodirning ukasining asl ismi tilga olinmagan. Uning qo'shbegi deb atalishi qo'shbegi mansabida bo'lganidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy ma'lumotlar Umarxonga qadar davlatda bosh vazir vazifasini qo'shbegi bajargan deyishga asos bo'ladi. Umarxon davridan qo'shbegi lavozimi mingboshi nomi bilan almashtirilganligiga sabab, ma'lumki, Buxoro amirligida ham bosh vazir lavozimini qo'shegi amalga oshirgan. Buxoro xonligidan tarkibidan ajralib, mustaqil davlat sifatida shakllangan Qo'qon xonligida boshqaruv tizimi ham dastlab Buxorodan andoza olib tashkil qilgan. Keyinchalik xonlik ma'muriy boshqaruv tizimida islohatlar o'tkazilib, mansablar va mansabdorlar faoliyati o'zgarib borgan. Mingboshi lavozimining ta'sis etilishi shu islohatlar natijasidir. Qo'qonda mingboshi mansabining mavqeyi keyingi hukmdorlar davrida yanada oshdi. Jumladan, Sheralixon (1842-1845) hukmronligidan boshlab, mingboshi mansabining mavqeyi davlat boshqaruvida oshgan bo'lsa, Xudoyorxon (I –davri 1845-1858) va Sulton Sayidxon (1863-1865) davrida ushbu mansab egasi davlat boshqaruvida to'liq hukmronlikni qo'lga olgan.

Qo'qon xonligi davlat boshqaruvning 40-50 yillarida mingboshi mansabining bunday eng yuqori pog'onaga ko'tarilishining bir necha siyosiy sabablari bor edi, albatta.

Birinchidan, hukmdorlar Xudoyorxon va Sulton Sayyidxon taxtga yosh o'tqazilgan. Ushbu hukmdorlarning taxtga o'tirishida va davlatni boshqarishida, aynan, ularning bosh vaziri, ya'ni Xudoyorxon uchun Musulmonquli, Sulton Sayyidxon uchun Aliquli amirlashkar muhim o'rin tutgan.

Ikkinchidan, taxtga da'vogarlikda guruxbozlik kuchaygan. Bu esa, o'z navbatida, davlat boshqaruvining ishonchli va kuchli qo'llarda bo'lishini talab qilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Qo'qon xonligida mingboshi juda katta huquq va imkoniyatlar berilgan va shu bilan birga davlat boshqaruvida unga juda katta ma'suliyatlar yuklatilgan.

Markaziy boshqaruv tizimida mingboshidan keyingi pog'onadagi mansab **qo'shbegi** mansabi bo'lib, hukumat olib borgan siyosatini amalga oshirishda bu

mansabdor muhim vazifalarga ma'sul bo'lgan. Uning faoliyati xususida Mulla Olim Mahdum Hoji muhim ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, " Ikkinchi, qo'shbegilik mansabidagi odamlar doimo xon huzurida maslaxatchi qatorida turub va yoki biror katta shahar hokimi bil - istiqlol nasib qiladur".⁴⁶ Qo`qon xonligida qo'shbegi mansablar qatoriga emas balki unvonlar qatoriga qo'shsa to'g'ri bo'ladi. Bu unvon egalari harbiylar qatoridan ham o`rin egallagan bo`lib, davlatning harbiy kuchlar boshqaruvida faol ishtirok etishgan. Qo'shbegi unvonidagi kishi harbiy harakatlar vaqtida qo'shin boshlig'i vazifasini bajargan.⁴⁷

Qo'shbegi mansabidan keyingi o`rinda **parvonachi** turgan. Uning egasi oliy hukmdor tomonidan berilgan yorliq va inoyatnomalarni o`z egalariga yetkazuvchi mansabdor edi. Ayrim hollarda parvonachi qo'shbegi lavozimini egallashi ham mumkin edi. Shuningdek, parvonachi mansabidagi kishilar ham viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan. Buni muarrix Mulla Olim Mahdum Hojining ushbu ma'lumoti ham tasdiqlaydi. " Bu mansabdagi zot ham qo'shbegi lavozimotini ado qiladurlar"⁴⁸

Mazkur mansab o`z xizmat doirasiga ko`ra oliy hukmdorga yaqin bo'lgan va uning ishonchini qozongan edi. Sh. Vohidovning yozishicha, " Uning egasi o`zini xonga yaqinligidan foydalanib, xat va arizalarni saroyga olib kirib, u yerdan ketma-ket javobini olib chiqarardi"⁴⁹

Davlatning rivojlanishi va yuksalishida tashqi dunyo aloqada bo'lishi muhim o`rin tutadi. Boshqaruvda xonlikka chet mamlakatlardan siyosiy, iqtisodiy, diplomatik munosabatlarini o`rnatish maqsadida kelgan elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish va xonlikda faoliyatiga javobgar mansabdor egasi "**shig`ovul**" edi. 1830 yilda Qo`qon xonligida bo'lgan Potanin esdaliklarda shig`ovul haqida "...ular chet mamlakatlardan

⁴⁶ Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston... b.104-105 қаранг. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг ма'мурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном. дисс.- Т. 2007 780 б.

⁴⁷ Vohid Sh. Qo`qon xonligida unvon va mansablar // Sharq Yulduzi. 1995.-N-3-4-b.217.

⁴⁸ Mulla Olim Mahdum Hoji Tarixi Turkiston...-b.105

⁴⁹ Vohid. SH Qo`qon xonligida unvon va mansablar//Sharq Yulduzi. 1995.-N-3-4.-B.220.; Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi va tarixidan (XIX-XX asr boshlari) -b.16

Qo`qonga kelgan elchilarni xonlik hududidagi faoliyati va esan –omon o`z vatanlariga qaytishlari uchun xon oldida javobgardir”⁵⁰, -deb yozgan .

Qo`qon xonligi markaziy boshqaruvda iqtisodiy masalalar bo`yicha ma`sul amaldor **devonbegi** ham muhim o`rin tutgan.Devonbegi xon devoning boshlig`i bo`lib, uning qo`l ostida bir necha mirzolar faoliyat yuritgan. Mamlakat hazinasiga tushadigan mablag`lar va bu mablag`larni sarflash harajati devonbegi nazoratida bo`lgan. B u sarf harajatlar uchun maxsus kirim-chiqim daftarida qayt etib borgan. Xonlik devonxonasida vaqf yerlari , masjid va madrasalarga tegishli kirim – chiqim yozuvlari,xonga hadya qilingan sovg`alar hisoboti hamda muhim statistik ma`lumotlar qayd etilgan daftarlar saqlangan.⁵¹

Qo`qon xonligida XIX asrning 50-yillariga kelib markaziy boshqaruv tizimida ayrim mansab va amallarning o`zgarishlarga yuz bergan.

Xonlikda yuzaga kelgan siyosiy boshbodoqlik, oliy hukmdorlarning yosh bo`lganligi sababli davlatni turli shaxslar orqali boshqarilganligi markaziy boshqaruv tizimida ma`lum o`zgarishlarga sabab bo`ldi. Ayrim mansab va amallar egalarining vakolatlari kengaytirildi yoki cheklandi.

Xonlik tarixiga oid asarlarda XIX asrning 50-60-yillardagi devonbegi mansabi va ulrni egallagan shaxslar haqida hech qanday ma`lumotlar keltirilmagan.Bu davrga kelib Qo`qon xonligi mansabi vakolatlari boshqa ya`ni **mirzaboshi** mansabida biriktilgan. Shuningdek, mirzaboshining hizmat doirasiga devonbegining vazifalardan tashqari yana bir vazifa yuklatilgan. Qo`qon xonlari hokimlarni almashtirish vaqtida ular boshqaragan viloyatlar byujet mablag`larining sarf –harajati ustidan taftish nazoratini olib borgan va bu ish aynan mirza boshi tomonidan amalga oshirilgan. Mallaxon (1858-62) hukmronligi davrida markaziy boshqaruv tizimida aynan ushbu vazifani Muhammad Yunus bajargan.Buni uning asari “ Tarixi Aliquli Amirlashkar”dan bilishimiz mumkin. Xususan, u Mallaxin tomonidan Toshkent viloyatini tekshirish uchun yuborilganligini bayon etar ekan,”

⁵⁰ Потанин.Р.И. Записки о Коканском ханстве...-С.279 қаранг. Махмудов. Ш. Кукон хонлигининг маъмурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007 82 б.

⁵¹ Троицкая А.Л. Каталог архива Коканских ханов XIX века-М Наука.1967.-С.3. қаранг. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг ма’мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007 82 б.

faqirni, Muhammad Muso farmonachi (parvonachi) moliya mulkiyalarin sarishta qilmoq uchun ... Toshkent viloyatiga sikritor , ya`ni mirzaboshi qilib yuboradilar”,⁵²-deb yozadi.

Qo`qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida iqtisodiy hayotni tartibga soladigan va boshqarish bilan bog`liq mansab “ **mehtar**” lavozimidir. Bu lavozim markaziy boshqaruv tizimidagi vazirlardan biri ekanligini uchratishimiz mumkin. Mamlakatga olib kirilayotgan va chiqilayotgan savdo mollaridan olingan zakot va bojni aynan mehtar lavozimidagi kishilar nazorat qilgan.⁵³ Markaziy boshqaruv tizimida mehtar lavozimida bir amaldor faoliyat yuritib, poytaxtga kelgan savdo karvonlari va ulardagi mollar xususida oliy hukmdorga ma`lumot bergan. Xonlikning boshqa chegara hududlarida ham tashqi savdo karvonlarini nazorat qiluvchi hududlar bo`lib, bu hududlar ham mehtar nazoratida bo`lgan .

Sh.Mahmudovning fikricha, mehtarning vazifasi moliya vaziriga emas.bojxona va zakot ishlari boshlig`i vazifasiga to`g`ri keladi.⁵⁴

Xonlik markaziy boshqaruv tizimida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyaga ega mansablardan **dasturxonchidir**. Dasturxonchi saroyda oliy martabali mehmonlar uchun uyushtiriladigan va turli bayramlar o`tkaziladigan marosim,kechalarni tashkillashtirib, boshqarib borish bilan bilan bir qatorda davlatning bosh xazinaboni ham hisoblangan. Qo`qon xonligida dasturxonchi markaziy boshqaruv mansabiiga kiritilgan. V.V.Velyaminov –Zernov uni bosh g`aznachi,deb izohlaydi va markaziy hokimiyatning asosiy mansablaridan biri deb ko`rsatadi.⁵⁵ Dasturxonchi davlat xazinasini idora etish bilan birga mamlakatning siyosiy hayotida ham faol ishtirok etgan. Jumladan,1831 yilda imzolangan Qo`qon xonligi foydasiga Qashqardan boj yig`ish bo`yicha Pekin shartnomasini tayyorlash va imzolashda Qo`qon davlati nomidan Mahmud

⁵² Muhammad Yunus Toyib. Tarixi Aliquli Amirlashkar T. 1997 .-N-1.-B.218

⁵³ Хорошхин А. П. Очерки Кокана// Туркистанский сборникУ.Т/116-С.48 каранг. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг ма`мурий- бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007. В. 85

⁵⁴Mahmudov Sh.Y. “Qo`qon xonligining ma`muriy boshqaruv tizimi”(1709-1876) Diss.t.f.n-T:2007 B.85

⁵⁵ Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве //.-СПб :-С.114

dasturxonchi ishtirok etgan.⁵⁶ Abu Ubaydulloh ham “Xulosat ul-ahvol” asarida Mahmud dasturxonchini Muhammad Alixonning vazirlaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.⁵⁷

Markaziy boshqaruv tizimida yuqori mavqeyiga ega bo’lgan unvonlar ham bo’lgan. Shulardan biri “**otaliq**”dir. Ootaliq unvoniga ega bo’lgan kishi davlat boshqaruvida , mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida hukmdorning bosh maslahatchisi bo’lgan.

Markaziy boshqaruvda “**risolachi**” tomonidan oliy hukmdor bilan viloyat hokimlari, biror xizmat bilan poytaxtdan uzoqda bo’lgan mansabdorlar, mamlakatlarning turli hududlarida o’rnashgan muntazam qo’shin boshliqlari, urush holatida qo’mondonlar o’rtasida yozishmalarni olib borish, hukmdorning hohish-irodasini turli shaxslarga bildirish, har xil masalalar bo’yicha yo’l-yo’riq va dasturulamallarni yetkazish kabi vazifarni amalga oshirgan. Qo’qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida risolachi o’rta darajadagi nufuzli mansabdor hisoblangan bo’lsada, XIX asrning 50 yillariga kelib, ushbu mansab egasining davlat boshqaruvida mavqeyi ortgan. Xuddi shu davrda Qo’qon xonligida ushbu vazifada Qulbobo risolachi xizmat qilgan, u mamlakatning siyosiy hayotida muhim o’zgarishlar tepasida turgan kishilardan biri bo’lgan.⁵⁸ U Xudoyorxonning mustaqil hukmronlikni o’z qo’liga olishida, ya’ni uning Musulmonquli vasiyligidan qutulishida katta yordam bergan kishilarning biri bo’lgan.

Qo’qon xonligining markaziy boshqaruv tizimida “**inoq**” unvoniga ega bo’lgan shaxs oliy hukmdorning mulozimlari ichida eng yuqori martabalisi bo’lib, bu unvonga bir kishi sazovor bo’lar edi. Sh. Vohidovning ko’rsatishicha, xonning xos va sirdosh mulozimi bo’lgan.⁵⁹

⁵⁶ Muhammad Yahyo xon//Vatan.1995.-N-16.

⁵⁷ Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг ма’мурий- бошкарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007 22 б.

⁵⁸ Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin...b.48-49

⁵⁹ Vohidov Sh.Qo’qon xonligida unvon va mansablar// Sharq yulduzi.1995.-N-3-4.-B.220.; Vohidov Sh., Xoliqova R Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan (XIX-XX asr boshlari).-b.16

Olimxon (1798-1810) 1806 yilda O`ratepa viloyatini Qo`qon tasarrufiga kiritganidan keyin viloyatga Qadam inoqni hokim qilib tayinlaydi. Ma`lumki, O`ratepa viloyati Qo`qon va Buxoro o`rtasida ko`p tortishuvlarga sabab bo`lgan hudud hisoblangan. Olimxon bu viloyatni qo`ldan bermaslik maqsadida o`ziga yaqin bo`lgan mulozimini hokim etib tayinlashga qaror qilgan.

Qo`qon xonligining markaziy davlat boshqaruvida siyosiy-iqtisodiy ishlarni bajaradigan mansabdorlar bilan bir qatorda diniy-huquqiy sohani boshqaradigan oliy martabali mansabdorlar ham faoliyat yuritgan. Xonlikning huquqiy tizimi shariat asosida olib borilganligi sababli aholining ijtimoiy-ma`naviy hayotida diniy-huquqiy vazifalardagi mansabdorlar muhim o`rin tutgan. Davlatning markaziy boshqaruvida eng oliy diniy mansab **shayxulislom** bo`lib, bu mansabni Sh.Vohidov, Umarxon tomonidan 1818 yilda ta`sis etilgan, deb ko`rsatadi.⁶⁰ Shu davrga qadar shayxulislom mansabi bo`lganligi to`g`risida ma`lumotlar deyarli uchramaydi. Shayxulislom mansabi davlat boshqaruvida xonlikda nufuzli mansab bo`lib, uning vakolatiga jamiyat a`zolari orasida kelib chiqadigan nizoli masalalarni hal etish, aholining arz – dodiga quloq tutish va yaxshi ishlarga undash, yomon xatti-harakatlardan qaytarish, yetimlar va yo`qolgan kimsalar mol- mulkiga hukm chiqarish shayxulislom zimmasiga yuklatilgan. Qo`qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida mamlakat sud ishlarini amalga oshiradigan qozilarning turli mojaroli masalalar bo`yicha chiqargan hukmlari va qozilarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi lavozim shayxulislom muhim o`rin tutadi. Shayxulislom markaziy va mahalliy boshqaruvi tizimida muhim o`rin tutgan qozikalon mansabiga nomzodlar ko`rsatish huquqiga ham ega bo`lgan. “Toshket viloyatining 1863-1865 yillardagi qozikaloni Xakimxo`ja eshon bu lavozimga shaxulislom Sulaymonxoja tomonidan oliy hukmdorga tavsiya qilingan.”⁶¹ Bu

⁶⁰ Vohid.Sh. Qo`qon xonligida unvon va mansablar// Sharq yulduzi .1995.-N-3-4.-B.222.; Vohidov Sh., Xoliqova.R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari).-b.19

⁶¹ Toshkand shahrini ulug` hurmatlik qozi kaloni Sayid Muhammad Xakimxo`ja eshon Norxo`ja eshon o`g`li ahvollari xususida//Turkiston viloyati gazet.1890.-N-46.

mansabdagi kishilar boshqa vazifaga o'tkazilmagan yoki vazifasidan bo'shatilmagan.

Xojikalon unvoniga bo'lgan diniy mansabdorlar xonlik markaziy boshqaruvda shaxulislomdan keyingi o'rinda turgan. Sh. Vohidov xojikalon unvonidagi kishiga fiqx olimi, deb ta'rif bergan. Xonlikning markaziy boshqaruvida ikki xojikalon tayinlanganligi bejis emas. Bu ikki fiqx olimi davlat ishlari, hukmdorning farmon va qarorlari shariat qonunlari asosida bo'lishi yoki shariatga mos kelishiga ma'sul shaxslar bo'lgan. Davlat idoralari ishlarida sha'riy qonunlarning buzilmasligi qattiq nazorat ostiga olingan. Bunda oliy hukmdor xojikalonlarga tayyanib, ish yuritgan. Ushbu holatni viloyatlar markazida ham mazkur mansab egasi faoliyat yuritganligi, ular oliy hukmdor tomonidan tayinlanganligi haqidagi mavjud yorliqlar ham tasdiqlaydi.⁶²

Markaziy boshqaruv tizimida **“qozikalon”** adliya va huquq tartibot ishlariga ma'sul lavozim bo'lib, bu mansabdagi bir kishi faoliyat yuritgan. Shuningdek, viloyat markazlarida mavjud mahalliy boshqaruv tizimida ham qozikalon mansabi bo'lgan. Qozikalon “...poytaxt va viloyat markazlaridagi qozilarning va qozixona ishlarining ustidan nazorat qilardi”, - deyilgan.⁶³ Qozikalonlar faqat qozilar va qozixona ishlari ustidan nazoratni amalga oshirmay, fuqarolarning turli huquqiy masalalari bo'yicha hukmlar chiqargani va bu haqda oliy hukmdor yoki viloyat hokimiga yozma bayonotlar tayyorlaganlar.

Qo'qon harbiy ishlar qozisi vazifasida **“qozi askar”** faoliyat yuritgan. Qozi askar, o'z navbatida, markaziy davlat boshqaruvidagi sudlov masalalari bo'yicha bosh mansabdor qozikalonga bo'ysingan.

Umarxon hukmronligi davrida xonlikning boshqaruv tizimida **“o'roq”** va **“sudur”** kabi diniy unvon egalari faoliyat yuritgan. Bu unvon egalari

⁶² Материали по истории Ура-Тюбе. сборник актов XVII-XIX вв. Составление перевод и предисловие А. Мухтаров. - М: 1963. - с. 58 Махмудов. III. Куканд хонлигининг ма'мурий- бoшқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс. - Т. 2007 692

⁶³ Vohid Sh. Qo'qon xonligidagi unvon va mansablar // Sharq Yulduzi, 1995. - №3-4. - b. 222.

vazifasiga vaqf mulklarini nazorat qilish kirgan. Sh.Vohidovning ta'kidlashicha, "O'roq" vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga, "Sudur" esa vaqf mulklarining daromadlari va hisob-kitobiga javobgar shaxs bo'lgan.⁶⁴

Shunday qilib, Qo'qon xonligi markaziy boshqaruv tizimiga oid ma'lumotlardan shunday fikrlarga kelish mumkin. Xonlikning markaziy boshqaruv tizimi o'z taraqqiyotida uch bosqichdan o'tgan. Birinchi bosqich xonlikda markaziy davlat boshqaruv tizimining shakllanishidir. 1709 yildan 1800 yillar davomida bu davrda yangi tuzilgan hamda siyosiy jihatdan rivojlanib borayotgan davlat, katta hududni qamragan davlatni boshqarish uchun boshqaruv tizimini O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan davlatchilik asoslari negizida rivojlanganligidir. Xonlik markaziy boshqaruv tizimining ikkinchi bosqichi 1800 yildan 1842 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatda kechgan siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy hayot borasida rivojlanish, bu davrda hukmdorlik qilgan hukmdorlarning o'z ichki va tashqi siyosatlarini, jamiyat bilan aloqalarini muayyan boshqaruv tizimiga tayanib yuritgani, bu tizimni takomillashtirish borasida bir qator tadbirlarning amalga oshirilgani, markaziy boshqaruv tizimida xonlikda mavjud bo'lmagan mansablarning joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda xonlikda bir qator islohatlarning amalga oshirilishi natijasida o'z davrining murakkab boshqaruv tizimi yuzaga keldi. Uchinchi bosqich esa 1842-1876 yillarni o'z ichiga olgan. Bu davrda mamlakatning hukmdor emas, ularning vasiylari tomonidan boshqarilganligi, ularning hokimiyatni uzoq vaqt qo'lda ushlab turish maqsadida boshqaruvning avtoritar uslubidan foydalangan. Markaziy boshqaruv tizimidagi ko'pgina mansab va amallarni vakolati qisqarganligi yoki yo'qotilgani, natijada bu davrda markaziy boshqaruv tizimining soddalashgani, shuningdek, ayrim mansablarning vazifasi boshqa mansabdorning zimmasiga yuklatilishi oqibatida o'z-o'zidan bu mansabning nomi ham tugatilganligini ko'rish mumkin.

⁶⁴ Vohid Sh. Qo'qon xonligidagi unvon va mansablar // Sharq Yulduzi, 1995.-N3-4.-b.222

II-BOB. QO`QON XONLIGINING MA`MURIY BOSHQARUV TIZIMI.

2.1. Xonlikning ma`muriy bo`linishi va viloyatlar boshqaruvi.

Qo`qon xonligi tarixi masalalari bo`yicha turli davrlarda tadqiqot olib borgan tarixchi olimlar o`z tadqiqotlarida ushbu davlatning chegarasi va uning ma`muriy-hududiy bo`linishi xususida ham qisman to`xtalib o`tganlar.⁶⁵

Qariyb ikki asr hayot surgan Qo`qon xonligi murakkab va ziddiyatli siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Qo`qon xonligining dastlabki tashkil topgan davridagi hududi hokimyatni boshqargan turli salohiyatli uzoqni ko`zlagan hukmdorlarning harakatlari natijasida kengayib bordi. Zero, davlat hududi va unda yashagan aholi uning mavjudliginiko`rsatuvchi belgilardan hisoblanadi.⁶⁶ Davlat tashkil topgan dastlabki davrlaridanoq moddiy, tabiiy homashyo manbayi bo`lgan hududini kengaytirish va boshqarishni tashkil etishga katta e`tibor qaratiladi. Qo`qon xonligida davlatchiligida ham bunga katta e`tibor berildi.

Farg`ona vodiysining markaziy qismida tashkil topgan yangi davlat hududiga uning birinchi hukmdori Shohruhbiy (1709-1721) tomonidan Namangan, Marg`ilon va Andijon to`liq qo`lga kiritilgan edi. Shohruhbiy vafotidan so`ng taxtga o`tirgan Abduraximbiy (1721-1733) Xo`jand viloyatini to`liq xonlik tarkibiga kiritdi⁶⁷ Vaqtincha bo`lsa-da, Buxoro xonligining

⁶⁵ Bu haqida qarang. Qayumov A. Adabiy muhiti, -T: Fan, 1961; Yusupov. Sh. Ocherki istorii Kulyabskogo bektva v konse XIX i nachalo XX veka, -Dushanbe: 1964; Ploskix V. Kirgizi i Kokandskoye xanstvo. -Frunze: Ilim, 1977; Xasanov. A. Narodniye dvijeniya v Kirgizii v period kokandskogo xanstva. -M.: Nayka, 1977; Beysembiyev. T. Tarixi Shaxruxi-kak istoricheskiy istochnik. -Alma-Ata. 1987; Bobekov X. Narodniye dvijeniya v Kokandskom xanstve i ix sotsialno-ekonomicheskiye i politicheskiye predposilki (XVIII-XIX) -T.: Fan, 1990; o`sha muallif. Qo`qon tarixi. -T: Fan, 1996; Qosimov Y. Qo`qon xonligi tarixi ocherklari. -Namangan; 1994; Vohidov. Sh. XIX-XX asr boshlarida Qo`qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarixfanlari doktori...dis. -T: 1998.; Ziyayev. X. Turkistonda Rossiya tajovuzi hukmronligiga qarshi kurash. -T: Sharq, 1998.; Turkiston chor mustamlakasi davrida O`zbekistonning eng yangi tarixi. birinchi kitob. -T.: Sharq, 1998.; Sagdullayev. A. Aminov. B. Mavlonov. O. Norqulov N. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. -T: Akademiya, 2000.; Ziyo. A. O`zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2001.; O`zbek davlatchiligi ocherklari. O`zR FA SHI ilmiy to`plami, -T.: Fan,

⁶⁶ Politologiya. /Pod redaksiye d.e.n. prof. G.B. Poluninoy. -M.: 1998. -S. 119

⁶⁷ Mullo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston... -b. 13

viloyatlari bo'lgan Jizzax, Samarqand va Kattaqo'rg'on ham Qo'qon hukmdori tomonidan egallandi.⁶⁸ Biroq Abduraximbiy Qo'qonga qaytgandan so'ng Buxoro bu viloyatlarini yana o'z tarkibiga qaytarib olishga erishdi.

1753 yil taxtga o'tigan Erdonabiy davlatning sharqiy qismidagi O'sh va O'zganni o'z davlati tarkibigaq kiritdi.⁶⁹

Norbo'tabiy hukmronligi davriga kelib esa Farg'ona vodiysining deyarli barcha qismi Qo'qon xonligi hududi hisoblangan.

XIX asr boshlariga qadar xonlik hududi tarkibiga Marg'ilon, Andijon, Namangan, Xo'jand kabi yirik viloyatlar bilan bir qatorda Chust, Isfara, Konibodom singari hududiy jihatdan kichik viloyatlar ham bo'lgan va ularni ham viloyatlar kabi hokimlar boshqargan.

Norbo'tabiyning o'g'li Olimxon (1798-1810) tomonidan mustaqil Toshkent bekligini bosib olinishi xonlik hududining yanada kengashiga, tashqi savdo aloqalarining rivojlanib,davlatning siyosiy mavqeyi ko'tarilishiga keng imkoniyatlar berdi. Bu imkoniyatlardan Olimxondan so'ng taxtga o'tirgan Umarxon (1810-1822) to'liq foydalanishga erishdi. U Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yib,Turkiya davlati bilan ham diplomatik munosabatlar olib bordi.⁷⁰

Amir Olimxon olib borgan shiddatli janglari natijasida,Qurama viloyati va Toshkent to'liq qo'lga kiritilgan bo'lsa⁷¹, Umarxon hukmronligi davrida xonlik hududiga Toshkent shimolidagi Dashti Qipchoq yerlarining bir qismini qo'shib oldi va u yerda to'liq o'z hokimiyatini o'rnatdi.⁷²

Muhammad Alixon (1822-1842) ham amakisi Olimxon va otasi Umarxon singari faoliyat yuritib,qisqa muddat bo'lsa-da, Qorategin,Ko'lob, Darvozni Qo'qonga bo'ysindirishga muvaffaq bo'ldi.⁷³

⁶⁸ Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin...-b.15.

⁶⁹ Ziyov A.O'zbek davlatchilik tarixi.-: T.Sharq,2001.-b.291.

⁷⁰ Boltaboyev.X. Amir Umarxonning maktubi//O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1997.27 oktabr.

⁷¹ Ziyov A. O'zbek davlatchilik tarixi...-b.292.

⁷² O'sha joyda,-b.292.

⁷³ Kuropatkin.A.N. KashgariY.Istoriko-geograficheskiy ocherk strain.-SPB.:1879.-s.94.

XIX asrning 50-yillariga qadar Qo`qon xonligi shimolda Rossiyaning Sibir okrugi, sharqda sharqiy Turkiston, g`arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi, janubda esa Qorategin, Darvoz, Ko`lob viloyatlari bilan chegaradosh edi.

Qo`qon xonligi tarixini yoritishga xizmat qiluvchi manbalarda davlatning ma`muriy bo`linishi haqida ko`plab ma`lumotlar uchraydi. Ularda xonlik ma`muriy jihatdan viloyatlarga ajratilib, idora etilganligi haqidagi ma`lumotlar uchraydi. Biroq, ma`lumotlarning ko`pligiga qaramasdan, XX asr ikkinchi yarmida olib borilgan tadqiqotlarda xonlik bekliklarga ajratilgan va boshqarilgan, deb ko`rsatilgan. Jumladan, A.Xasanov Qo`qon xonligi davrida Qirg`izistondagi xalq harakatlariga bag`ishlangan asarida Qo`qon xonligini ma`muriy jihatdan bekliklarga bo`lingan edi, deb qayd etgan.⁷⁴ Bu keltirilgan ma`lumot Qo`qon xonligining barcha davrlari uchun to`g`ri kelmaydi.

Qo`qon xonligi XIX asrning 40-yillariga qadar xonlik hududi ma`muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar esa sarkorlik, oqsoqollik va aminliklarga bo`lingan. Bu davrda Qo`qon xonligi tarkibida Marg`ilon, Andijon, Shahrixon, Namangan, Xo`jand, Chust, Isfara, O`ratepa, Qurama, Toshkent va Turkiston viloyatlariga bo`lgan.

XIX asrning II yarmida chop etilgan asarlarda⁷⁵ ham xonlikning ma`muriy bo`linishi va uni tashkil etgan ma`muriy birlik turli viloyatlar haqida ma`lumotlar keltirgan.

Bu asarlarda keltirgan ma`lumotlarga ko`ra, xonlikning yirik viloyati Farg`ona<sup>76</sup> bo`lib, u hududiy jihatdan Sirdaryoning chap qirg`og`i bilan Qorategin o`rtasida joylashgan yerlarni qamrab olgan edi.

Sirdaryoning o`ng qirg`og`ida joylashgan Namangan va boshqa shaharlar hududini qamrab olgan yerlar xonlikning yana bir yirik viloyatini tashkil qilgan.

⁷⁴ Xasanov.A. Narodniye dvijeniya v Kirgizii v period Kokandskogo xanstva...-s.24.

⁷⁵ Potanin.N.I. Zapiski o Kokanskom xanstve...-s.268-278; Obozreniye Kokanskogo xanstva...-s.176-177.

⁷⁶ Bunda Marg`ilon viloyati nazarda tutilgan.

Shuningdek, ba'zi ma'lumotlar bu davrda xonlik tarkibida Xo'jand va O'ratepa alohida-alohida viloyat bo'lganligini tasdiqlaydi.⁷⁷

Bu davrda xonlikning yirik ma'muriy birligi Toshkent viloyati bo'lib, bu viloyat ham rus manbalarida ham keltirilgan.

Bedbaq dala cho'lida joylashgan Turkiston xonlikning shimoliy viloyati hisoblangan.

Qo'qon xonligining eng katta hududini Toshkent viloyatini qamrab olgan bo'lib, mazkur viloyat tarkibiga bir nechta yirik shaharlar, qal'alar, ma'muriy birliklar biriktirilgan. Toshkent viloyatiga tegishli bo'lgan ma'muriy birliklarga, asosan, xonlik shimoliy hududidagi qal'alar Avliyo Ota, Soliqo'rg'on, Marki, Itkechuv, Oqsuv, Pishpak va To'qmoq hamda Issiqko'lning atrofidagi hududlarni o'z ichiga olgan.

Xonlikning hududiy jihatdan katta viloyatlari Andijon va Namangan bo'lib, qirg'izlar yashaydigan katta hududlar bo'ysungan.

V. Ploskix va A. Xasanovning tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, Farg'ona vodiysi ichida joylashgan viloyatlarga vodiyni tashqarisida joylashgan ma'muriy hududlarni ham idora etish huquqi berilgan edi. Xonlik hududining bu tarzda ma'muriy hududiy birliklarga bo'linishi boshqaruv tizimida bir qator qiyinchiliklarga olib kelgan. Keltirib o'tilgan hududlar viloyat markazidan ancha olisda bo'lgan. Shu bois viloyat boshqaruvchilarning bu hududlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatni nazorat etishlarini qiyinlashtirgan. Bundan tashqari, Qo'qon xonlarining ma'muriy hududiy bo'linishni shunday tarzda tashkil etishlari mamlakatda boshqa etnik guruh vakillarining markaziy hokimiyatga tobeligini saqlab turishni ko'zlagan. Xonlikda turli viloyatlarni ma'muriy boshqarish markazlaridan turib amalga oshirilgan.

XIX asrning 40-yillaridan keyin xonlik markaziy hokimiyatida vujudga kelgan guruhbozliklar, hokimiyat uchun to'xtovsiz davom etgan kurashlar natijasida ma'muriy bo'linishda ma'lum o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan,

⁷⁷ Obozreniye Kokandskogo xanstva...-s.176.

bu davrda viloyatlar tarkibida alohida kichik hokimliklar tashkil etildi. Xonlik ma'muriy boshqaruv tizimida katta birlik bo'lgan viloyatning mayda birliklarga bo'linishi bu davrda mamlakatda yuza kelgan siyosiy vaziyatning murakkablashgani, markaziy davlat salohiyatining susayganligi, turli kuchlar va amaldorning hokimiyat bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan.

Xonlikning chekka hududlarini boshqarishda harbiy qal'alar ham markaz vazifasini bajargan. 1830-yillarga qadar xonlik hududida qurilgan bu harbiy istehkomlardan ma'muriy markaz sifatida foydalanilganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Qirg'izistonlik olim V. Ploskix harbiy istehkomlarning ahamiyati va katta-kichikligi qarab uch guruhga bo'ladi va mazkur qal'alarda harbiy maqsadlardan tashqari mahalliy boshqaruv bilan mashg'ul bo'lgan ma'muriy tizim ham joylashganligini ta'kidlaydi.⁷⁸ Bu tadqiqotchining fikrlarini tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, "Tarixi Aliquli Amirlashkar" asarida shunday ma'lumot keltirilgan: "Mallabek Toshkand borib, Abduvali degan odamni Oqmasjidga hokim qilib yubordi".⁷⁹ Ma'lumki, Oqmasjid Qo'qon xonligining shimoliy nuqtasida qurilgan harbiy istehkom bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, xonlikda qurilgan qal'alardan faqat harbiy masalalarda foydalanilmagan, bu istehkomlardan ular atrofida joylashgan hududni ma'muriy boshqarishga ma'sul bo'lgan boshqaruv tizimi ham mavjud bo'lgan. Bu boshqaruv tizimi boshida hokim turgan.

XIX asrning 60 – yillariga kelib, Rossiya imperiyasining xonlik hududiga bostirib kirishi natijasida mamlakat hududining katta qismini bosib oldi. Ayniqsa, 1865 yilda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan Toshkent viloyatining to'liq bosib olinishi nafaqat xonlikning hududi va ma'muriy birliklariga, siyosiy mustaqilligiga ta'sir o'tkazdi. Hokimiyat tepasiga uchinchi bor kelga Xudoyorxon (1865-1875)

⁷⁸ Ploskix, V. Kirgizi i Kokandskoye xanstvo...-s.140-142.

⁷⁹ Muhammad Yunus Toyib. Tarixi Aliquli Amirlashkar.-N1.-b.221

o'z erkinligini mustamlakachilar qo'liga osongina topshirib qo'yganligini o'zi anglamadi. Bu davrda davlatning ko'pgina ma'muriy birliklari qo'ldan ketdi. Bu paytga kelib, xonlikning hududi faqatgina Farg'ona vodiysi bilan chegaralanib qoldi. Bu esa 1870 yilga kelib Xudoyorxon kichrayib qolgan xonlikning ma'muriy –hududiy bo'linishini qaytadan ko'rib chiqishiga sabab bo'ldi.

Sharqshunos A.Kun yuzaga kelgan bunday sharoitda Xudoyorxon tomonidan xonlik hududini 15 ta beklikka bo'lganligini ko'rsatib o'tgan. Bular - Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, So'x, Maxram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Novqat, Koson, Chust va Bobodarxon bekliklari edi.⁸⁰ Tadqiqotchining keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur ma'muriy birliklar bu davrda xonlikning Farg'ona vodiysida joylashgan yirik viloyatlari - Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va Namanganning bir necha bo'laklarga bo'lib yuborish natijasida vujudga kelgan. So'nggi Qo'qon hukmdorining xonlikning ma'muriy bo'linishi bo'yicha amalga oshirgan.

Tadqiqotchi V. Nalivkin xonlikning ma'muriy bo'linishini viloyatlarga, viloyatlar bekliklarga, bekliklar esa o'z navbatida, aminlik va oqsoqolliklarga bo'lingan", - deb ko'rsatgani, aynan, shu davrni ko'zda tutgan.⁸¹ Qolaversa, tadqiqotchi A.Kun tomonidan keltirilgan Marg'ilon bekligidan ajratib olingan Aravon Sulton Murodbekning o'g'li tomonidan boshqarilganligi haqidagi ma'lumoti V.Nalivkin keltirgan ma'lumotga to'g'ri keladi. Lekin V.Nalivkin ko'rsatgan ma'lumotlar mahalliy mualliflardan biri bo'lgan Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida keltirilgan ma'lumotlarga mos kelmaydi. Bu asarda yozilishicha, "Namangan hokimiga qarashli to'rt qasabo bo'lib, To'raqo'rg'on, Chust, Chahortog', Koson degan yerlar, har biri bir beklik yeri edi".⁸² Ishoqxon Ibratning bu fikrlaridan ko'rinadiki Namangan viloyatiga qarashli to'rt qasaba bo'lgan. Mazkur qasabalar har biri "bir beklik yeri" ekanligi alohida ta'kidlanganligi xonlikning ma'muriy jihatdan

⁸⁰ Kun.A. Nekotoriye svedeniya o Ferganskoy doline...-s.422.

⁸¹ Nalivkin.V.Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva...-s.208

⁸² Ishoqxon Ibrat.Tarixi Farg'ona...b.327.

“beklik”ka bo`linmaganligini ko`rsatadi. Bundan ko`rinadiki ,rus tadqiqotchilar qasabani beklik deb tushungan. Oqibatda buni beklik deb atashgan. Bu rus tadqiqotchilarining xonlikning ma`muriy bo`linishini “beklik”(bekstvo) deyishganini ingliz olimi M.Xoldsvort ham tadqiqotlarida ta`kidlagan.⁸³

Mahalliy tarixchilarning asarlari hamda hukmdorlarning bergan yorliq va inoyatnomalarini o`rganish natijasida ularda beklik nomi umuman uchramasligiga imkon beradi. Shunga alohida ta`kidlash kerakki, viloyat tarkibidagi ma`muriy birliklar hukmdorining mavqeyi darajasi viloyat hokimlariningki bilan teng bo`lgan.⁸⁴ Ushbu ma`muriy birliklar hukmdori ham oliy hukmdor tomonidan tayinlangan.⁸⁵

Xonlik ma`muriy hududiy bo`linishining eng quyi bo`g`ini oqsoqollikdan iborat bo`lgan. Oqsoqollik tarkibiga katta bir qishloq yoki bir necha kichik qishloqlar kirgan. Mazkur ma`muriy birlikni aminlar va oqsoqollar⁸⁶ , ba`zilarini sarkorlar⁸⁷ nazorat qilgan.

Qo`qon xonligi ma`muriy hududiy bo`linishi masalasini o`rganish muhim masalalardan biridir.

Shunday qilib, Qo`qon xonligining ma`muriy hududiy chegarasi taxtga kelgan hukmdorlarning mamlakat ichki va tashqi siyosatida olib borgan islohotlari natijasida XIX asrning 40- yillariga qadar kengayib bordi. Bu davrlar ichida xonlik hududi viloyatlarga,viloyatlar esa sarkorlik va oqsoqolliklarga bo`linib boshqarildi. Ammo,XIX asrning 40- yillaridan keyin xonlikning ma`muriy bo`linishida ba`zi o`zgarishlar sodir bo`ldi. Endilikda viloyatlar qasabalarga,sarkorlik va oqsoqolliklarga bo`linib idora etila boshladi.Mamlakat ma`muriy-hududiy bo`linishidagi bu o`zgarishlarni Qo`qon xonlarining o`ziga yaqin amaldorlarga hokimiyat berish uchun amalga oshirgan.

⁸³ Holdworth.M. Turkestan in the nineteenth century.-Oxford:1959.-P.9

⁸⁴ Mullo Olim Mahdum Hoji.Tarixi Turkistan...B.69

⁸⁵ O`sh joyda ,-b.58

⁸⁶ Mirzo Olim Mushrif.Ansob-us-salotin...b.31

⁸⁷ Nabyev.R. Iz istorii Kokandskogo xanstva...s.230

Xonlikning turli ma'muriy birliklari oliy hukmdorning o'ziga yaqin kishilari tomonidan boshqarilgan. Bu an'ana ham O'rta Osiyo xonlarining barchasiga xos edi. Biroq, Qo'qon xonligida, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda, muhim siyosiy va ijtimoiy- iqtisodiy muhim ahamiyat kasb etgan markazlarga hukmron sulolaning vakillari emas, balki, katta siyosiy, harbiy tajribaga ega bo'lgan amaldorlar va sarkardalar tayinlangan

Juda katta sarhadlarni o'z ichiga birlashtirgan Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy bo'linishi va ma'muriy boshqaruvida, boshqa xonliklaridan farqli o'laroq, XIX asrning birinchi choragida qurilgan harbiy istehkom vazifasini o'tagan qal'alar muhim ahamiyat kasb etgan. Bu harbiy qal'alar xonlikning chegara hududlarini, xonlik hududidagi dasht aholisini itoatda tutish va markaziy hokimiyat siyosatini joylarda amalga oshirishda muhim rol o'ynagan.

2.2 Ma'muriy boshqaruvda unvon va mansablar faoliyati.

O'zbek davlatchiligi tarixi O'rta Osiyo hududida turli davrlarda mavjud bo'lgan davlatlar o'zining ichki va tashqi siyosatini murakkab boshqaruv tizimiga asoslanib idora etgan. Bu jarayonlarda markaziy boshqaruv tizimi bilan qatorda mahalliy boshqaruv tizimi ham muhim o'rin tutgan. Bu boshqaruvni amalga oshirishda bu tizimda faoliyat yuritgan unvon va mansablarni aniqlab olishimiz kerak.

Birinchi navbatda, Qo'qon xonligi mahalliy boshqaruv tizimida birinchi mansabdor shaxs xususida xonlik tarixiga oid tadqiqotlarda turlicha fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, T.Beysimbiyev xonlikdagi viloyatlarni hokimlar yoki voliylar boshqargan degan fikrni bildirib, "ayrim hollarda markaziy boshqaruv tizimidamuhim o'rin tutgan amaldorlar - otaliq, qo'shbegi, devonbegi, parvonachi, xazinachi va dodgoh mansabidagilar ham xonlikdagi ma'muriy- hududiy birlik bo'lgan viloyatlarni boshqarishi mumkin edi", -deb

yozadi.⁸⁸ Ba`zi tadqiqotchilar viloyat hukmdorlarini hokimlar deb atashgan. Jumladan, A.P.Qayumov o`z tadqiqot ishida xonlikda “ viloyatlarni hokimlar boshqarar edi”-deb yozgan.⁸⁹ Xonlikdagi mahalliy boshqaruv tizimi tepasida turgan viloyat boshliqlarining “hokim” deb atalishi xususida mahalliy muarrixlarning XIX asrda yozilgan Qo`qon xonligiga oid asarlarida juda ko`p ma`lumotlar keltirilgan. “Ansob us-salotin...” asar muallifi Mirzo Olim Mushrif Qo`qon xoni Sheralixonning hukmron doira vakillari bilan kengashib,Marg`ilon viloyatiga yangi hukmdor tayinlashi haqida yozar ekan, quyidagilarni qayd etadi: “ Arkoni davlat bilittifoq maslahat qilib,... Yusuf mingboshini Marg`ilonga hokim qildilar”.⁹⁰

Shu o`rinda viloyat hokimlarining qo`shbegi,devonbegi, parvonachi mansabidagilari va o`z amallari doirasida davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim rol o`ynagan va muayyan e`tibor qozonganlar. Ularning ayrimlariga ba`zi siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko`ra viloyatlar boshqaruvi ishonib topshirilgan. Ko`p hollarda ular biror viloyatga hokim etib tayinlanganidan keyin ham mamlakat markaziy boshqaruv tizimida ilgari egallab turgan mansabining nomi bilan atalgan.

Viloyat boshliqlarining “bek” deb atalishi xususida Sattorxon Abdug`afforovning ma`lumotlari e`tiborga loyiq. U viloyatlarni beklar va hokimlar boshqargan deb e`tirof etar ekan, ularning farqiga to`xtalib, “... ikkalasining mavqeyi teng , farqi –bek xon urug`idan, hokim esa oddiy fuqarolardan” bo`lgan,-deb yozadi.<sup>91</sup> Bundan ko`rinadiki, ayrim viloyat hokimlari xonning yaqin qarindoshlaridan bo`lganligi uchun “bek” deb atalgan

Xonlikda kechgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar mahalliy boshqaruvda ham bir qator o`zgarishlar bo`lishiga sabab bo`ldi. Xususan, poytaxtdan ancha uzoqda joylashgan va XIX asrning dastlabki o`n yilligida xonlik

⁸⁸ Beysimbiyev.T.”Tarixi Shaxruxi”-kak istoricheskiy istochnik...-s.70.

⁸⁹ Qayumov.A.Qo`qon adabiy muhiti...b.30.

⁹⁰ Mirzo Olim Mushrif.Ansob us-salotin...-s.b.33

⁹¹ Sattarxan Abdul- Gafarov .Kratkiy ocherk vnutrennogo sostoyaniya Kokandskogo xanstva pered zavoyevaniyem ego russkimi//Turkestanskiye vedomosti,1892.-N-26

tarkibiga qo`shib olingan Toshkent va Janubiy Qozog`iston hududlarini boshqarish tizimiga ayrim o`zgartirishlar kiritishni talab etdi. Shunga ko`ra, 1831 yilda Muhammad Alixon tomonidan yangi unvon joriy qilindi. Bu “**beklarbegi**” unvoni bo`lib, u faqat Toshkent viloyati hokimiga berilgan. Ushbu mansabdor bir qator imtiyozlarga ega bo`lgan jumladan, unga xonlikning shimoliy hududlaridagi ma`muriy birliklar ustidan nazorat qilish vazifasi topshirilgan. Viloyat hokimlariga ma`muriy hududni to`la boshqarish bilan bir qatorda, viloyatdagi qo`shinni boshqarish ham yuklatilgan edi. Xonlikning asosiy harbiy kuchlari, asosan, viloyatlarda to`plangan bo`lib, V. Nalivkin va A. Kun o`z asarlarida bu qo`shinlarni boshqargan viloyat hokimlarini “sarkarda” deb ham qayd etadilar.⁹² Viloyat hokimligiga va mahalliy boshqaruv tizimining nufuzli vazifalariga mansabdorlar xon tomonidan maxsus davlat xujjati bo`lgan yorliqlar asosida tayinlangan. Mahalliy boshqaruv kengashi ham viloyat hokimi huzuridagi mansabdorlardan tuzilgan.

T. Beysimbiyev Toshkent viloyati hokimining yordamchisi bo`lganligini qayd etib, ular mahalliy boshqaruvning muhim jabhalariga javobgar bo`lganliklarini ta`kidlaydi.<sup>93</sup> Uning ta`kidlashicha, ularning birinchisi fuqarolik ishlari va soliq yig`ish bilan shug`ullanib, sarkor (yoki mirzaboshi), ikkinchisi harbiy masalalar bilan shug`ullanib, botirboshi deb atalgan.<sup>94</sup> Bu ikki mansab egasi mahalliy boshqaruv tizimida muhim o`rin tutgan. Bularning faoliyatisiz viloyat ma`muriyatini tasavvur qilish qiyin bo`lgan. Ayniqsa, viloyatlardagi fuqarolik ishlari va soliqlar yig`ishga mutasaddi bo`lgan sarkorlar hokimlarning asosiy yordamchisi bo`lgan. Bu haqida tadqiqotchi R. Nabiyeu sarkorlik ma`muriy boshqaruv tizimida muhim rol o`ynaganini ta`kidlab, ular bir vaqtning o`zida ham agrar masalalarni, ham savdo - sotiq munosabatlarini, ham hunarmandchilik sohalarini nazorat

⁹² Kun. A. Nekotoriye svedeniya o Ferganskoy doline//Turkestanskiy sbornik. T/117-s.170.

⁹³ Beysimbiyev. T. Visshaya administratsiyatashkenta i yuga Kazaxstana v period Kokandskogo xanstva: 1809-1865gg. V kn: Istoriko-kulturniye vzaimosvyazi Irana i Dasht-I Kipchaka v XIII-XVIII vv. Materiali Mejdunarodnogo kruglogo stola.-Almati: Dayk-Press, 2004, -s.291.

⁹⁴ O`sha joyda, -s.291.

qilganligi va oliy hukmdorning hamda viloyat hokimlarining xo'jaligidagi barcha masalalarda ham muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi.⁹⁵

Ba'zi vaqtlarda bu vazifani sarkorlarning o'rniga mirzaboshilar bajarganligi to'g'risida tarixiy manbalarda berilgan. Mahalliy boshqaruv tizimida moliya ishlari bilan ham sarkor(yoki mirzaboshi) shug'ullangan. Sarkorlarning markaziy boshqaruv tizimidagi kabi mahalliy boshqaruv tizimida ham faoliyat doirasi o'zgarganligi, xonlikdagi murakkab boshqaruv tizimi XIX asrning 50-70 yillariga kelib soddalashganligi bir amaldorning vakolatiga bir necha mansab egalarining vazifalari yuklatilganligini ko'rsatadi.

Xonlikning mahalliy tizimida markaziy boshqaruv tizimidagi kabi turli diniy mansab amallar mavjud bo'lgan. Qo'qon xonlari tomonidan berilgan yorliqlardan ko'rinadiki, viloyatlarda ham markaziy boshqaruvdagi kabi qozikalon, xojikalon, sadr kabi bir qator mansabdorlar faoliyat yuritishgan. Bu vazifalarga ularni oliy hukmdorning o'zi tayinlagan. 1825 yilda Muhammad Alixon tomonidan O'ratepa viloyatiga Muhammad Solixojaning xojikalonlik mansabiga tayinlangani,⁹⁶ Sulton Sayyidxon tomonidan esa 1864 yil Toshkent viloyati qozikalonlik mansabiga Hakimxo'ja eshon tayinlangani⁹⁷ haqidagi xujjatlar keltirib o'tgan fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bu mahalliy boshqaruvdagi yuqori mansablarga turli amaldorlar faqat xon tomonidan tayinlanganligining yaqqol misolidir. Mahalliy boshqaruv tizimida "**Sadr**" lavozimi bo'lib, odatda, "vaqf mulklarining daromadlariga hisob-kitobiga javobgar kishi" hisoblangan.⁹⁸ Sadrlar faoliyati bu bilan chegaralanib qolmagan. Ular vaqf mulklarini boshqarishdan tashqari barcha sayyidlar, ulamolar, mudarrislar, qozilar, shayxulislomlar, muazzinlar va qorilarni o'z rahnamoligiga olgan. Bu mansab egasiga oliy hukmdor ham, viloyat hokimlari ham alohida ehtirom ko'rsatganlar. Viloyat markazlarida ma'naviy hayotni bir maromda ketishini

⁹⁵ Nabiyev.R. Iz istorii Kokandskogo xanstva...-s.228-231.

⁹⁶ Materiali po istorii Ura -Tyube. Sbornik aktov XVIII-XIX vv.-M/:1963.-S.35.

⁹⁷ Toshkand shahrining ulug' hurmatlik qozi kalini Sayyid Muhammad Xakimxo'ja eshon Norxo'ja eshon o'g'li ahvollari xususida//Turkiston viloyatining gazet.1890.-N-46,-N-49.

⁹⁸ Vohidov Sh.Qo'qon xonligi Buxoro amirligining mansab va unvonlari...-b.19.

ta'minlash va hokimlarning o'zboshimchaligining oldini olish uchun "Sadr" lavozimi joriy etilgan deyish mumkin.

Qo`qon xonligi mahalliy boshqaruv tizimida va boshqa xonliklardagi kabi **qozilar** muhim rol o`ynagan. Qozilarning zimmasiga fuqarolarning arz va shikoyatlarini, talablari asosida shariat qonunlariga asoslangan holda sudlov ishlarini tashkil etish yuklatilgan. Qo`qon xonlida viloyat va shahar qozilari, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda "xon yorlig`iga binoan" shahar hokimlari tomonidan tayinlanar edi.⁹⁹ Ko`p hollarda qozilarni tayin etishda ularning qozilar avlodidan ekanligiga ham e`tibor berilgan. Qozilar, odatda, xazinadan maosh olmaganlar. Ular asosan, turli qozilik hukmlari xususan, nikoh o`qishi, har xil xujjatlarni rasmiylashtirilishi va boshqalardan kelib tushadigan daromadlar hisobiga yashaganlar. Ularning maosh bilan ta'minlanmaganligi ba`zi hollarda qozilar orasida salbiy holatlar, jumladan, poraxo`rlikning kelib chiqishiga sabab bo`lgan. Mahalliy boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan qozilar bu boshqaruv tizimining tepasida turgan hokimlar, beklar oldida javobgar edi. Qozilarning hukmlarida norozi fuqarolar oliy hukmdor xonga va hokimga murojaat qilish huquqiga ega bo`lganlar.

Xonliklarda davlatni boshqarishda shariat qonun qoidalari asosida boshqarilgan. Bu yerda "**Muftiy**"ning o`rni ahamiyatli bo`lgan. Ular shariat asoslari va musulmon huquqshunosligi bo`yicha mukammal bilmga ega bo`lishi va turli munozarali masalalar bo`yicha Qur`oni karim vaxadislari asosida "fatvo"lar chiqargan o`z muhrini bosgan. Qozilar o`z hukmini chiqarishda ularni inobatga olgan.¹⁰⁰ xonlik muftiylari viloyat hokimlari tomonidan ilmiy munozaralarda o`zining diniy va dunyoviy bilimlarini ko`rsatishga muvaffaq bo`lgan mudarrislar va shariat asoslarini bilgan o`qimishli kishilar ichida tayinlangan.¹⁰¹

⁹⁹ Kun.A. Nekotoriye svedeniye o Ferganskoy doline...-s.438.

¹⁰⁰ Semenov.A.A. Ocherk ustroystva sentralnogo administrativnogo upravleniya Buxarskogo xanstva pozdneyshego vremeni...-s.41.

¹⁰¹ Sattarxan Abdul -Gafarov. Kratkiy ocherk vnutrennogo sostoyani Kokandskogo xanstva pered zavoevaniyem ego russkimi //Turkestanskiye vedomosti.1892.-N-26.

Keltirib o`tilgan ma`lumotlarga ko`ra viloyat hokimlariga o`z hududlarini boshqarishda juda katta huquq va imtiyozlar berilganligi, ular mahalliy boshqaruvdagi nafaqat dunyoviy, balki diniy mansabdorlarni tayinlash huquqiga ham ega bo`lganliklarini ko`rsatadi. Shu bilan birga viloyat hokimlari mahalliy boshqaruv tizimiga ma`sul shaxs sifatida uni tashkil etishi, ba`zi kichik markazlarga amaldorlarni tayinlashi mumkin edi. Viloyatlar tarkibida ma`muriy birliklarni boshqaruvida asosan xonlikning Toshkent viloyati va qisman Namangan hamda Andijon viloyati tarkibidagi qirg`izlar va qozoqlar yashaydigan hududlarda tashkil etilganligini aytib o`tish kerak. Mazkur ma`muriy birliklarni boshqaruv qarorgohi harbiy qo`rg`on qal`alarda joylashgan bo`lib, ularni oliy hukmdor tomonidan tayinlangan “**dodhoh**” unvonidagi mansabdorlar boshqargan. Dodgohlar qirg`izlar yashaydigan hududlarda qirg`iz manaplari, qozoqlar yashaydigan hududlarda esa qozoq biylari ishtirok etgan boshqaruv tizimini tashkil etishgan. Chuy vodiysidagi qirg`iz manaplari turli bahsli masalalarda Pishpakda har yili yig`in o`tkazib turishgan.<sup>102</sup> Bunday yig`in Qurtqada ham bo`lib, unda qirg`izlar uchun turli qaror va qonunlar tasdiqlangan yoki bekor qilingan.¹⁰³

Xonlikning o`troq aholi yashaydigan hududlarida mahalliy boshqaruvning eng quyi tizimi **aminlik** va **oqsoqollik**lardan iborat bo`lgan. Bunday ma`muriy birliklar aminlar va oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Ayrim qishloqlarni miroblar yoki imom xatiblar ham boshqargan.<sup>104</sup> Qo`qon xonligida aminlik va oqsoqollik ma`muriy hududiga ko`ra katta qishloq yoki bir necha kichik qishloqlardan tashkil topgan.¹⁰⁵ Amin va oqsoqollar hukumat tomonidan emas, fuqarolar tomonidan saylangan. Bu Qo`qon mahalliy boshqaruv tizimining yana bir o`ziga xos xususiyati edi. Amin va oqsoqollar o`zlari boshqarayotgan hudud fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalari

¹⁰² Xasanov.A.Narodniye dvijeniya v Kirgizii v period Kokanddskogo xanstva...-s.29.

¹⁰³ O`sha joyda.-s.30.

¹⁰⁴ Soodanbekov.S.S. Obshestvenniy i gosudarstvenniy story Kokandskogo xanstva.-Bishkek.2000.-s.102.

¹⁰⁵ Nalivkin.V. Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva...-s.208.

bilan bir qatorda maishiy turmushga oid masala va muammolarni hal etish bilan shug'ullangan.

Xonlikdagi markaziy boshqaruvda bo'lgani kabi mahalliy boshqaruv tizimida ham muhim amaldorlardan biri “**muhtasib**” bo'lgan. O'rta Osiyo xonliklardagi kabi, Qo`qon xonligida muhtasibni-raisa, ba`zi hollarda **qozi rais** deb ataganlar.¹⁰⁶ Mazkur lavozimga xulq-atvori yaxshi, diniy bilim va shariatning chuqur bilimdoni, hamda aholi o`rtasida katta hurmat va e`tiborga ega bo'lgan kishilar tayinlangan. Ayrim hollarda bu vazifaga qozilar ham tayinlangan bo`lib, ular qozilikni raislik vazifasi bilan birga olib borgan.<sup>107</sup> Shuning uchun ularni ba`zi hollarda qozi rais ham deb ataganlar. Qozi rais mansabi egasining faoliyati aholining turish turmushi, ijtimoiy –iqtisodiy hayotning ayrim jihatlarini nazorat qilish bilan bog`liq edi. “Tarixi Jahonnamoyi” asarida XIX asrning 60-yillarida Qo`qon xonligi davlat boshqaruvida muhim o`rin tutgan shaxs, Sulton Sayyidxon (1863-1865) ning bosh vaziri, mingboshi mansabida bo'lgan Aliquli Amirlashkar yoshlik chog`ida dastlabki bilimini Andijon muhtasibidan olganligi haqida xabar beriladi.¹⁰⁸ Raislar o`zlariga yuklatilgan vazifalarni nazorat qilish bilan birga, tartib qoidalarni buzgan yoki jinoyat sodir etganlar jazolash bilan shug'ullanishgan. Bu kabi jarayonlarda talabalar ham ishtirok etishgan. Jazolash tartibi ikki usulda amalga oshirilgan. Jazoning birinchisi aybdorni 3 tadan 39 tagacha qamchi urush bo`lsa, ikkinchisi sazoyi qilish bilan amalga oshirilgan

Qo`qon xonligida mahalliy boshqaruv tizimida O'rta Osiyo xonliklaridagi kabi bo`lib, Qo`qonda bu tizimning o`ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lgan. Mahalliy boshqaruv tizimida ham markaziy boshqaruv tizimidagi kabi XIX asrning 50-70 yillarida murakkab boshqaruv tizimi soddalashib, turli mansab egalarining vakolatlari bitta amaldorga o`tgan.

¹⁰⁶ Sattarxan Abdul -Gafarov. Kratkiy ocherk vnutrennego sostoyani Kokandskogo xanstva pered zavoevaniyem ego russkimi//Turkestanskiy vedomosti.1892.-N-26.

¹⁰⁷ O`sha joyda.

¹⁰⁸ Avaz Muhammad Attor Xo`qandiy, Tarixi Jahonnamoyi//Sharq Yulduzi.1991.-N-8-b.127.

Shuningdek, Qo`qon xonligining mahalliy boshqaruv tizimi asosan mamlakat xazinasiga mablag` to`plash, ya`ni soliq tizimi bilan band bo`lganligini ko`rish mumkin. Mahalliy hukmdorlar hisoblangan hokimlar ko`p hollarda o`zi boshqarayotgan hududning iqtisodiyotini rivojlantirishga, aholining farovon hayot kechirish borasida biror tadbirni amalga oshirishni o`ylab ham ko`rmaganlar. Izchillik bilan davom etgan xonlik boshqaruv tizimidagi bunday holat natijasida aholining noroziligi kuchaytirgan. Oqibatda Rossiya imperiyasining Qo`qon xonligining shimoliy hududlari bo`lgan janubiy qozoq yerlarini jadal bosib olishiga imkon tug`ilgan.

2.3 Xonlik boshqaruvida Buxoro va Xiva xonligi nisbatan farqli jihatlari.

Qo`qon xonligi markaziy boshqaruv tizimi boshqa O`rta Osiyo xonliklar singari o`rnatilgan. Biroq markaziy va ma`muriy boshqaruvi tizimida o`ziga xos farqli jihatlari ham bo`lgan.

Qo`qon xonligida davlat boshqaruv tizimida turli amaldorlar faoliyat yuritgan maxsus vazirliklar zimmasidagi vazifalarni bir shaxsga yuklatilgan. Bunday tizim boshqa xonliklarda ham mavjud bo`lgan. Xiva xonligi boshqaruv tizimi ham shu usulda amalga oshirilgan.¹⁰⁹

Qo`qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida Oliy Kengash faoliyat yuritgan. Qo`qon xonligida davlatni boshqaruv tizimida turli shaxslarni mansabga tayinlash, ularni bu mansabga tayinlanish vaqtida o`tkaziladigan marosim va udumlar bo`lib, bu udumlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida boshqaruv tizimidagi an`analarda ham ko`rish mumkin. Shulardan biri oliy hukmdorni tayinlash, ya`ni **“xon ko`tarish”** marosimidir.

Qo`qon xonligida boshqa O`rta Osiyo xonliklari kabi hukmron doiradagi mansabdorlar ushbu marosimda yangi hukmdorga o`z itoatkorligini bildirib, bay`at (qasamyod) qilishgan, so`ngra uni oq kigizga o`tqazib

¹⁰⁹ Ziyov.A. O`zbek davlatchilik tarixi...b.295.

ko'tarishgan. Marosimdan so'ng yangi xon xalqqa e'lon qilingan.¹¹⁰ Bundan ko'rinadiki, Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham bu marosim shunday amalga oshirilgan.

Xonlik markaziy boshqaruv tizimida ham mansabga tayinlash turli tartiblarda amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ayrim hollarda yangi tayinlangan mansabdorga kimxob to'n kiydirilib, oliy hukmdorning muhri bosilgan yorliq berilgan. Qo'qon xonligida boshqa xonliklardan farqli ravishda faqat "**Xudaychi**" mansabiga tayinlanish o'zgacha usulda bo'lgan. Xudaychi mansabiga tayinlanayotgan kishiga kimxob to'n va yorliqlardan tashqari oltin xassa ham berilgan.

Qo'qon xonligida Umarxon xon bo'lishiga qadar xonlik markaziy boshqaruvida bosh vazir lavozimini "Qo'shbegi" amalga oshirgan bo'lsa, uning davriga kelib o'rnini "**Mingboshi**" egallagan. Chunki, Umarxon taxtga o'tirgach bir qator ma'muriy boshqaruvga o'zgartirish kiritib, mansab va mansabdorlar faoliyatini o'zgartirgan. Bosh vazirning qo'shbegidan mingboshiga o'tishi shu kabi islohatlar natijasidir.

Buxoro xonligida mingboshi mansabi harbiy mansab sifatida mashhur edi.

Xiva xonligida esa mingboshi mahalliy boshqaruv tizimida quyi mansablar qatoridan o'rin olgan.¹¹¹

Qo'qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida mingboshidan keyingi pog'onada **qo'shbegi** turgan. Xonlikda bosh vazir Mingboshi bo'lsa, Buxoro amirligida farqli ravishda Qo'shbegi mansabi bosh vazir hisoblanib, poytaxt uning nazorati ostida bo'lgan. Ayniqsa, .mang'itlar hukmdorligi davrida bu mansabning mavqeyi yo'qori bo'lganligini sharqshunos A.A.Semenov qayd etadi.¹¹² Xivada xonligida ham qo'shbegi Qo'qon xonligidagi singari bosh vazirdan keying o'rinda turgan asosiy amaldorlardan hisoblangan.¹¹³ bo'lsada

¹¹⁰ A.Ziyo O'zbek davlatchilik tarixi....-b.83

¹¹¹ Yo'ldoshev.M. Xiva xonligidagi feodal yer egaligi va davlat tuzilishi...b.262.

¹¹² Semenov.A.A. Buxarskiy traktat o chinax i zvaniyax i ob obyazannostyax nositeley ix v srednevekovoy Buxare...-s.139.

¹¹³ Sobolev.L.M. Obzor dostupov k Xivinskomu xanstvu i kratkiye svedeniya o nem.(Voyenno-statcheskiy ocherk)/Voyenniy sbornik.-SPB.: -1873.-n-5.-S.158.

ikkala xonlikda bu mansabdagi vazirlarning faoliyati bir-biridan keskin farq qilganligini ko`rish mumkin. M.Yo`ldoshevning ko`rsaticha, Xivadagi qo`shbegi moliya-soliq ishlariga mutasaddi rahbarlardan sanalgan.¹¹⁴

Qo`qon xonligida qo`shbegi mansabidan keyingi o`rinda **parvonachi** mansabi bo`lgan. Bu mansabni egallagan shaxs oliy hukmdor tomonidan yorliq va inoyatlarni o`z egalariga yetkazgan.

Ushbu mansab Buxoro va Xiva xonligida ham mavjud bo`lib, bu mansab egasi vazifasida deyarli farq bo`lmagan.

Qo`qon xonligi markaziy boshqaruvida xonlikka chet mamlakatlardan . elchilarni kutib olish bilan “**Shig`ovul**” shug`ullangan.Buxoro Amirligi<sup>115</sup> va Xiva xonligida<sup>116</sup> ham shig`ovul mansabi bo`lganligini tarixy manbalar tasdiqlaydi.

Qo`qon xonligida iqtisodiy masalalar bo`yicha ma`sul amaldor **devonbegi** bo`lgan. Bu mansab egasi mamlakat xazinasi nazoratini amalga oshirgan.Buxoro va Xiva xonliklarida ham Qo`qon xonligidagi singari, devonbegi lavozimidagilarga bir xil vazifani bajarganlar. Biroq, ayrim farqli jihatlari bo`lgan. Xususan, Buxoro Amirligida devonxonaga tegishli xujjatlarning barchasi devonbegi ixtiyorida bo`lmay, balki qo`shbegi ixtiyorida saqlangan.

XIX asrning 50-60 yillariga kelib,xonlik markaziy boshqaruv tizimida devonbegi vakolatlari boshqa, ya`ni **mirzaboshi** mansabida kishiga berilgan. Buxoro Amirligida bu mansab egasi aksincha bosh vaziri bo`lgan qo`shbegining devonxonasi boshlig`i Qo`qon xonligidan farqli o`laroq, mirzaboshi deb yuritilgan.¹¹⁷

Xonliknini markaziy boshqaruvidagi iqtisodiy hayotni tartibga solish “**Mehtar**” lavozimi vakolatida bo`lgan. Mehtarga mamlakatga olib kirilayotgan

¹¹⁴ Yo`ldoshev.M. Xiva xonligida feodal yer xo`jaligi va davlat tuzilishi ...-b.262

¹¹⁵ Mirza Badi Devon. Majma` al-arqam.-M-:1981.-s.99

¹¹⁶ Yo`ldoshev M.Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi...b.270

¹¹⁷ Semenov.A.A. Ocherk ustroystva sentralnogo adminstrativnogo upravleniya Buxarskogo xanstva pozdneyshego vremeni.-Stalinabad:1954.-s.60

va olib chiqilayotgan savdo mollaridan olingan zakot va bojni aynan mehtar lavozimidagi kishlar nazorat qilgan.¹¹⁸

Mehtar mavqeyi Qo`qon xonligiga nisbatan boshqa O`rta Osiyo xonliklarida ancha yo`qori bo`lgan. Xiva xonligida 1819-1821 yillarda mehtar bosh vazir hisoblangan. lekin, rus sayyohi Muravyov o`z esdaliklarida ta`kidlanishicha Qo`qon xonligidagi kabi bu mansab vakolatiga boj va soliq ishlarini nazorat qilish bilan chegaralangan.<sup>118</sup> Shuningdek, XIX asr II yarmiga oid tarixiy manbalarga ko`ra, Xivada mehtar xazina mablag`larining sarf-xarajati ustidan ham nazorat qilgan.¹¹⁹

Xonlik markaziy boshqaruv tizimidagi yuqori mavqeiga ega bo`lgan mansablardan biri bu “**Otaliq**” bo`lgan. Buxoro Amirligida ham otaliq unvoni bo`lgan. Bu unvon ikki kishiga berilgan. Ayrim hollarda, A.A.Semenovning ko`rsatishicha, asosan, Buxoro amirligining so`nggi hukmdorlari davrida bu unvon hech kimga berilmagan.<sup>120</sup> Xiva xonligida esa Buxoro va Qo`qon xonligidan farqli ravishda, otaliq unvoniga to`rt kishi ega bo`lib, bu unvon urug` boshliqlariga berilgan.

Xonlik markaziy boshqaruv tizimida “**Inoq**” unvoniga ega bo`lgan shaxs oliy hukmdorning mulozimlari ichida eng yuqori martabalisi bo`lib, bu unvonga bir kishi sazovor bo`lgan. Sh. Vohidovning ko`rsatishicha, xonning xos va sirdosh mulozimi bo`lgan.<sup>121</sup> Buxoro xonligida hukm surgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida “Inoq” unvoniga ega bo`lgan shaxs mavqeyi yuqori bo`lib, oliy hukmdorning muhri uning qo`lida saqlangan.¹²² Xiva xonligida inoq unvoniga xonga itoat etgan urug` oqsoqollariga berilib, bunga

¹¹⁸ Muravyov N.N. Puteshestviye v Turkmeniyu i Xivu .chast II.-1822.-s.41-42.

¹¹⁹ Yo`ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi...-b.229

¹²⁰ Semenov A.A. Ocherk ustroystva sentralnogo administrativnogo upravleniya Buxarskogo xanstva pozdneyshego vremeni...-s.61.

¹²¹ Vohid.Sh.Qo`qon xonligida unvon va mansablar//Sharq Yulduzi.1995.-N-3-4.-b.220; Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan(XIX-XX asr boshlari).-b.16

¹²² Semenov A.A. Buxarskiy traktat o chinax i zvaniyax i ob obyazannostyax nositeley ix v srednevekovoy Buxare...-s.139

to'rt kishi sazovor bo'lgan.¹²³ Xivada yangi xonni taxtga o'tqazishda bu unvon egalari muhim rol o'ynagan.

Davlatning markaziy boshqaruv tizimida eng oliy diniy mansab **“Shayxulislom”** bo'lib, bu mansab Sh.Vohidov, Umarxon tomonidan 1818 yilda ta'sis etilganligini ko'rsatadi¹²⁴. Buxoro va Xiva xonligida ham shayxulislom eng oliy diniy huquqiy mansab bo'lgan.

“Xojikalon” unvoni diniy mansabdorlar markaziy boshqaruvda shayxulislomdan keyin turgan. Sh.Vohidov bu unvondagi shaxsga fiqx olmi deb ta'rif beradi. Xonlikda bu mansabga ikki kishi tayinlangan. Bu ikki fiqx olimi davlat ishlari, hukmdor farmon va qarorlari shariyat qonunlari asosida bo'lishi yoki shariatga mos kelishiga ma'sul shaxslar bo'lgan. Xonlikdan farqli ravishda, xojikalon mansabi Buxoro so'nggi davrida mavjud bo'lmagan. A.A.Semenov Buxoro xonligida bu mansab, faqat XVII asrga oid **“Tarixi Muqimxoniy”** asarida tilga olinishini qayd etadi.¹²⁵

Qozikalon markaziy boshqaruv tizimidagi adliya huquq tartibot ishlariga ma'sul lavozimi bo'lib, bu mansabda bir kishi faoliyat yuritgan. Buxoro va Xiva xonligida ham Qo`qon xonligidagi kabi qozikalon mansabidagi amaldor bir xil vazifalarga ma'sul bo'lsalar -da, ayrim farqlar ham kuzatiladi. Masalan, Xiva xonligi markaziy boshqaruvida bu lavozimda ikki mansabdor faoliyat yuritgan.

Qo`qonda harbiy ishlar qozi vazifasida **“qozi askar”** mansabidagi kishi faoliyat yuritib, bu amaldorning mavqeyi va xizmat doyrasi Buxoro va Xiva xonligidagiga o'xshash bo'lgan.

Xonlikning mahalliy boshqaruv tizimi tepasida turgan viloyat boshliqlari **“hokim”** deb atalgan. Bu mansabga markaziy davlat boshqaruvidagi mansabdorlardan ham tayinlangan. Markaziy hokimiyatda biror bir mansabni egallagan amaldorni rahbar etib yuborish tajribasi boshqa

¹²³ Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi...-b.240-241.

¹²⁴ Vohid.Sh.Qo`qon xonligida unvon va mansablar//Sharq Yulduzi.1995.-N-3-4.-b.220; Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan(XIX-XX asr boshlari).-b.16

¹²⁵ Semenov A.A. Buxarskiy traktat o chinax i zvaniyax i ob obyazannostyax nositeley ix v srednevekovo Buxare...-s.148

O`rta Osiyo xonliklarida ham qo`llanilgan. Jumladan, Buxoro amirligida, Muhammad Baljuvoniyniing “Tarixi nafeiy” asarida, agarda biror shahar yoki viloyatga hokim tayinlamoqchi bo`lsalar,avvalo,to`qsobalardan tayyinlaganlar.¹²⁶

Xonlik mahalliy boshqaruv tizimida markaziy davlat boshqaruv tizimi kabi turli diniy mansab va amallar mavjud bo`lgan.

Mahalliy boshqaruv tizimida “**sadr**” lavozimi bo`lib,ular odatda, “vaqf mulklarining daromadlariga va hisob-kitobiga javobgar kishi hisoblangan.¹²⁷”

A.Semenov ko`rsatishicha,Buxoroda ham sadrning vazifasi deyarli shunday bo`lib, u vaqf mulklaridan olinadigan soliqlarni nazorat qilgan.¹²⁸

Qo`qon mahalliy boshqaruv tizimida ham O`rta Osiyo xonliklari kabi “**qozilar**”muhim o`rin tutgan. Ularning vakolatiga fuqarolarning arz va shikoyatlari, talablari asosida shariyat qonunlariga asoslangan holda sudlov ishlarini amalga oshirish yuklatilgan. Qo`qon xonligida viloyat va shahar qozilari, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda “xon yorlig`iga binoan” shahar hokimlari tomonidan tayinlanar edi.¹²⁹

Davlat shariat qonun-qoidalari asosida boshqarishda xonlikda “**muftiylar**”o`rni o`zgacha bo`lgan.Bu unvonga tayinlash borasida xonlikda bu holat qozilarni tayinlash kabi Qo`qon mahalliy boshqaruv tizimining o`ziga xos xususiyatlaridan edi. Buxuro amirligida A.A.Semenovning ko`rsatishicha, XVIII-XIX asrda amirlik viloyatlariga muftiylarni poytaxt shahar Buxoro qozikaloni tayinlagan.

Shunday qilib,Qo`qon xonligi boshqaruv tizimida boshqa xonliklar singari mansab va lavozimlar bo`lganligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Biroq xonlikning o`ziga xos ma`muriy boshqaruv tizimi ham bo`lganki bunda boshqa xonliklarnikidan farqli o`laroq mansab va lavozimlar joriy etilib ularning vakolatiga o`xshash vakolat boshqa xonliklarda yo`q edi. Bu Qo`qon xonligini turli millat va elat vakillari , ijtimoiy qatlamlarni turli xilligi bilan ham izohlanadi.

¹²⁶ Baljuvoni Muhammad Ali. Tarixi Nafeiy.-T: Akademiya,2001.-b.23.

¹²⁷ Vohidov Sh.Qo`qon xonligi va Buxoro amirligida mansab va unvonlar...-b.19.

¹²⁸ Semenov A.A. Buxarskiy traktat o chinax i zvaniyax i ob obyazannostyax nositeley ix v srednevekovoy Buxare...-s.144

¹²⁹ Kun. A.Nekotoriye svedeniye o Ferganskoy doline...-s.438.

III-BOB. "QO'QON XONLIGI BOSHQARUV TIZIMI" MAVZUSINI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QITILISHI.

3.1. Mavzuning darsliklarda yoritilishi va o'qitishning uslubiy tavsiyalar.

“Qo`qon xonligining tashkil topishi va boshqaruv tizimi” mavzusi o`rta ta`lim maktablari uchun 2010 yil nashr etilgan darslikning 32 paragrafida ” Qo`qon xonligining tashkil topishi, davlat tuzumi va boshqaruvi ” yoritilgan. ¹³⁰ mazkur mavzuga o`rta ta`lim maktablari uchun 1 soat ajratilgan.

Darslikda Qo`qon xonligining tashkil topishiga oid ma`lumotlar o`quvchilar uchun tushunarli, aniq ma`lumotlarga asoslangan holda yoritilgan.

”Qo`qon xonligidagi davlat tuzumi va boshqaruvi” qismida xonlikdagi davlat tuzumi va boshqaruvi taxlil etilib, xonlikda yuz bergan siyosiy voqealarning davlat tuzumi va boshqaruvigaga ta`siri ko`rsatib berilgan.

Darslikda Qo`qon xonligining tashkil topishi qismida XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi zaiflashganidan foydalanib, 33 paragrafda «XVIII asr II yarmi XIX asrlarning boshlarida Toshkent» mavzusida Toshkent hokimligining qay tariqa tashkil topganligi,hokimlikdagi siyosiy ahvol,hokimlikning Rossiya bilan munosobatlari haqida ma`lumot berilgan.

Mavzu o`quvchilarga tushunarli bo`lishi uchun bo`limlarga ajratilgan. Har bo`limga mavzular qo`yilgan. Darslikda Qo`qon xonligi uchun 7 paragraf ajratilganbo`lib,har bir paragrafda Qo`qon xonligining ma`lum bir jihati yoritib berilgan. Mavzu yoritilishi davomida o`quvchilar uchun tushunarsiz bo`lgan atamalarga izohlar berib o`tilgan,shuningdek mavzu yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar darslikda joy olgan. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida yuqorida keltirilgan mavzularni yoritish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara berishi kuzatuvlar va tajribalar jarayonida isbotlandi. Misol tariqasida 8 sinflarda tarix darsligida 3 chorakda ”Qo`qon xonligining tashkil topishi va boshqaruv tizimi” mavzusini

¹³⁰ Usmonov Q, U.Jo`rayev,N.Norqulov O`zbekiston tarixi(XVI-XIX asrning birinchi yarmi): O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi 8-sinf o`quvchilari uchun darlik-T.2010

tushuntirish jarayonida BBB, klaster texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. BBB texnologiyasi asosida o`quvchilarning mavzuga doir bilim ko`nikmalari aniqlanadi, klaster asosida bilimlardagi bo`shliqlarni to`ldirish imkoniyati yaratiladi. Ya`ni o`quvchilar induksiya va deduksiya usulidan foydalangan holda bilimlarini boyitib boradilar. Shu o`rinda mavzuga doir tushunchalar va atamalarni o`quvchilar xotirasida yaxshi saqlab qolishlari uchun tushunchalar tahlili va tezkor fikr texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi. Dastlab o`quvchilarga mavzuga oid atamalar berilib, ular hamkorlikda ya`ni o`qituvchi boshchiligida mavzuni tushuntirib borish jarayonida tahlil qilib boriladi, keyingi darsda uyga vazifani so`rash va mustahkamlash jarayonida mazkur atamalarni o`zlari jadval yoki kartochkalar asosida o`quvchilarga topshiriq sifatida tarqatiladi. O`quvchilar belgilangan vaqt ichida mazkur atamalar ta`rifini yozib berishlari kerak bo`ladi. O`quvchilarga mavzuni tushuntirib berish jarayonida mustaqil ishlashlari uchun vaziyat yaratish kerak bo`ladi. Mavzuning muammoli tomonlari o`quvchilar diqqatiga havola etilib, yechimini topish bo`yicha yo`l-yo`riqlar ko`rsatish o`quvchilarning fikrlarini tinglash, kamchiliklarini to`ldirish va qo`shimcha manbalardan foydalanish ko`nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Mavzu	Oo`qon xonligi va boshqaruv tizimi
--------------	---

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2 soat	O'quvchilar soni : 30 ta
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Qo`qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi</li> <li>2. Qo`qon xonligining markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi 3. Qo`qon xonligining boshqaruv tizimining boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Qo`qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi Qo`qon xonligining markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi, Qo`qon xonligining boshqaruv tizimining boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari tushuntirib o'quvchilarga bilim va ko'nikma hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: • Qo`qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi uning tarixiy ahamiyati va o`rni haqida ma'lumot berish ; • Qo`qon xonligining markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi ahamiyatini tushuntirib berish;</li> <li>• Qo`qon xonligining boshqaruv tizimining boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari haqida o'quvchilarda bilim va ko'nikma hosil qilish;	O'quv faoliyati natijalari: • Qo`qon xonligining boshqaruv tizimining boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; • Qo`qon xonligining markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi ahamiyatini tushuntirib berish; ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'ladilar;</li> <li>• Qo`qon xonligining boshqaruv tizimining boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari ahamiyati haqida o'quvchilarda bilim va ko'nikma hosil bo'ladi;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ma'ruza,BBB, klaster, INSERT jadvali, ko'rgazmali qurol
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoaviy.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Maruza matni, proektor, slaydlar, internet ma'lumoti
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat savollari, og'zaki savol – javob.

Texnologik xarita

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
<i>I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (25 daqiqa)</i>	1.1. O'quvchilarning davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi. 1.2. Darsning mavzusi, rejasi maqsadi tushuntiriladi. (1- ilova) 1.3. Mavzuni mohiyatini ochib berish uchun ko'rgazmali quroldan foydalaniladi. 1.4. Taqdimot asosida mavzuni tushuntiriladi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydi. Tomosha qiladilar
<i>II Asosiy bosqich (35 daqiqa)</i>	2.1. Mavzuning birinchi rejasi Qo`qon xonligi tashkil topishi va siyosiy tarixining tarixiy ahamiyati tushuntirib beriladi. ( 2- ilova ) Rejaga doir rasmlar bilan tushuntiriladi.(3- ilova) 2.2. Mavzuning ikkinchi rejasi Qo`qon xonligi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi ahamiyati mazmunini tushuntiriladi. (4- ilova) Mansablar va unvonlar.(5-ilova) 2.3. Mavzuning uchunchi rejasi Qo`qon xonligining boshqaruv tiziming boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. (6-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar. Tinglaydilar, yozib oladilar. Tinglaydilar.
<i>III Umumlashtiru vchi bosqich (15 daqiqa)</i>	3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun INSERT jadvalidan foydaniladi (7- ilova) 3.2. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar. (8- ilova)	Topshiriq bo'yicha ishlaydilar Tinglaydilar
<i>IV Yakunlovchi bosqich (5 daqiqa)</i>	4.1. Uyga topshiriq: Xonlikda faoliyat yuritgan markaziy va mahalliy mansab va unvonlar haqida ma'lumot to'plash va tahlil qilish. (9- ilova)	Vazifani yozib oladilar

Mavzu: Qo`qon xonligi va boshqaruv tizimi

Reja:

1. Qo`qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixining tarixiy ahamiyati.
2. Qo`qon xonligining markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi ahamiyati
3. Qo`qon xonligining boshqaruv tizimining boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari ahamiyati

O`rta Osiyo xonliklari markaziy boshqaruv tizimi dargoh va devondan iborat bo`lgan. Dargoh – Hukmdorning eng oliy davlat idorasi, devonlar esa ma`lum bir doiradagi vazifalarni boshqaruvchi vazirliklar hisoblangan. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar davriga kelib, bunday boshqaruv tizimi to`laligicha o`zgardi. A`zamat Ziyoning aytishicha, bu davrda “ ... mazkur tizim (dargoh va devonlar) yo`qqa chiqqan va ijroiya vazifalari to`g`ridan-to`g`ri saroydagi u yoki bu lavozimda yoki biron bir arbob faoliyatida mujassamlashgan” edi.<sup>1</sup> Demak, turli amaldorlar faoliyat yuritgan maxsus vazirliklar zimmasidagi vazifalarni birgina shaxsga yuklatish bilan devonlar faoliyatiga chek qo`yilgan. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining zaiflashuvi oqibatida vujudga kelgan Qo`qon xonligi davlat boshqaruvida ham aynan shu tizim shakllangan.

Barchamizga ma`lumki, hamma zamonlarda davlat boshqaruvida markaziy idoralar asosiy rolni bajargan. Shu ma`noda Qo`qon xonligining markaziy boshqaruv tizimi o`ziga xos jihatlari bilan ham ajralib turadi.

Markaziy boshqaruv tizimidagi unvon va mansablar faoliyati

Markaziy boshqaruv tizimida yuqori mavqeyiga ega bo'lgan unvonlar ham bo'lgan. Shulardan biri “**otaliq**”dir. Bu haqida Isoqxon Ibratning “Tarixi Farg'ona” asarida aniq ma'lumot berilgan. U asarida “... yoshi xondan katta bo'lib, xizmat birla vazirlikga etsa atolik amali berilur ekan.Yorliqda muhri xonni muhri birla barobar ekan,bilofarq noyibdek”,-deb qayd etadi.¹

Ushbu unvonga ayrim hollarda oliy hukmdorning qaynotasi erishgan. Jumladan, “Muntaxab ut-tavorix” asarida 1815 yilda Andijon hokimi bo'lgan Umarxonning qaynotasi Rahmonqulibiyga otaliq unvoni berilgan edi.¹ Musulmonquli kuyovi Xudoyorxonni 1845 yilda taxtga o'tkazgach, o'zi yosh hukmdorning otalig'i bo'lgan¹.


Otaliq unvoniga ega bo'lgan kishi davlat boshqaruvida , mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida hukmdorning bosh maslahatchisi bo'lgan.

Markaziy boshqaruvda “**risolachi**” tomonidan oliy hukmdor bilan viloyat hokimlari, biror xizmat bilan poytaxtdan uzoqroq yurgan mansabdorlar, mamlakatlarning turli hududlarida o'rnatilgan muntazam qo'shin boshliqlari,

Атамалар изохи

Вилоятлар	Маъмурий маркази	Манбалар
Марғилон	Ёрмозор	МТ, 300 а – варақ; ТАА, 61 а – варақ.
Андижон	Андижон	МТ, 300 а – варақ; МТФ, 26 а – варақ.
Наманган	Тўрақўргон	МТ, 307 б – варақ; МТФ 25 б – варақ.
Хўжанд	Хўжанд	МТ, 300 а – варақ.
Чуст	Чуст	МТ, 300 а – варақ.
Исфара	Исфара	АС, 57 а – варақ.
Ўратепа	Ўратепа	АС, 97 а – варақ; МТФ, 25 б – варақ.
Қурама	Кировчи	АС, 66 а – варақ; МТФ, 38 б – варақ.
Тошкент	Тошкент	МТ, 281 а – варақ; ТАА, 74 б – варақ.
Туркистон	Туркистон	МТ, 281 а – варақ; АС, 121 а – варақ.

АТАМАЛАР ИЗОХИНИ ЁЗИНГ



Атамалар изохи

Шайх ул-ислом

Диндорларнинг энг олий унвонларидан булиб, Умархон томонидан 1818 йилда жорий қилинган. У хоннинг маслаҳатчиси ҳамда диний ишларнинг олий бошлиғи.

Шайх ул-машойих

Муқаддас жойлар мутасаддиси

Ҳожа калон

Фикҳ олимининг фахрий унвони. У ҳам хоннинг маслаҳатчиси бўлган

Имоми жилав

Сафар ва юришлар пайтида хон ва рикоб аҳлига хизмат қиладиган имом

Аълам

Шариат бўйича маслаҳатчи фикҳ уламоси

Садр

Диний маслаҳатчи

Судур

Вақф мулкларининг даромадларига ва ҳисоб-китобларига жавобгар шахс

Муфти

Фатво берувчи

Ўрок

Вақф ерлари солиқларига масъул шахс

Мирасад

Диний уламо

Миршаб

Қозихона аскари ва тунги соқчи

QO`QON XONLARI

1. *Shohrux* (1709-1721)
2. *Abruhahim* (1721-1733)
3. *Abdulkarim* (1733-1750)
4. *Abdurahmon* (1750)
5. *Erdona* (1751-1752; 1753-1762)
6. *Bobobek* (1752-1753)
7. *Sulaymon* (1762-1763)

Xojikalon unvoniga boʻlgan diniy mansabdorlar xonlik markaziy boshqaruvda shaxulislomdan keyingi oʻrinda turgan. Sh. Vohidov xojikalon unvonidagi kishiga fiqh olimi, debt aʼrif bergan. Xonlikning markaziy boshqaruvida ikki xojikalon tayinlanganligi bejis emas. Bu ikki fiqh olimi davlat ishlari, hukmdorning farmon va qarorlari shariat qonunlari asosida boʻlishi yoki shariatga mos kelishiga maʼsul shaxslar boʻlgan.

Davlat idoralari ishlarida shaʼriy qonunlarning buzilmasligi qattiq nazorat ostiga olingan. Bunda oliy hukmdor xojikalonlarga tayyanib, ish yuritgan. Ushbu holatni viloyatlar markazida ham mazkur mansab egasi faoliyat yuritganligi, ular oliy hukmdor tomonidan tayyinlanganligi haqidagi mavjud yorliqlar ham tasdiqlaydi

Markaziy boshqaruv tizimida “**qozikalon**” adliya va huquq tartibot ishlariga maʼsul lavozim boʻlib, bu mansabdagi bir kishi faoliyat yuritgan. Shuningdek, viloyat markazlarida mavjud mahalliy boshqaruv tizimida ham qozikalon mansabi boʻlgan. Qozikalon “...poytaxt va viloyat markazlaridagi qozilarning va qozixona ishlarining ustidan nazorat qilardi”, - deyilgan.¹ Qozikalonlar faqat qozilar va qozixona ishlari ustidan nazoratni amalga oshirmay, fuqarolarning turli huquqiy masalalari boʻyicha hukmlar chiqargani va bu haqda oliy hukmdor yoki viloyat hokimiga yozma bayonotlar tayyorlaganlar.

Qoʻqon xonligining boshqaruv tizimi

БИЛАМАН	БИЛМОКЧИМАН	БИЛИБ ОЛДИМ

Xulosa

O'zbekiston mustaqillik yillarida yosh avlod tarbiyasiga chuqur e'tibor qaratmoqda. Ularning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga katta imkoniyat va sharoitlar yaratib bermoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar bundan darak beradi. Shundan kelib chiqqan holda o'qituvchilarga ham ma'suliyat yuklatilgan bo'lib, ular yoshlarni kelajagimiz poydevori, buyuk ishlar izdoshlari qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutishlari lozim. Bugungi kunda o'rta ta'lim tizimi, kasb hunar kollejlari, akademik litseylarda ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Pedagogik texnologiyalar asosida o'tilgan o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarni va talabalarni teran va mustaqil fikrlash, dunyoqarashini kengaytirish, asosiysi jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Qo'qon xonligi 1709 yil Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Farg'ona vodiysining Buxoro xonligidan ajralib chiqishi natijasida vujudga kelgan va 1876 yil Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunga qadar mavjud bo'lgan xonlikdagi davlatchilik tamoyillari, boshqaruv tizimi haqidagi mahalliy tarixchilar asarlarida, xorijlik tadqiqotchilarining tadqiqotlaridan bilishimiz mumkin. Qo'qon xonligi tarixini o'rganish XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Hozirgi kungacha xonlik tarixi bo'yicha amalga oshirilgan va yaratilgan ilmiy asarlar hamda ilmiy tadqiqotlarning salohiyati juda katta. Xonlik boshqaruv tizimidagi maslahat organi – Oliy Kengashning mavjudligi Qo'qon hukmdorlari xonlikni tarixiy vorisiylik, o'zbek davlatchiligi an'analari asosida olib borganligini ko'ramiz. Davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin tutgan Qo'qon xonligi o'zining ma'muriy va siyosiy boshqaruv tizimining o'ziga xos tomonlari bilan qo'shni xonliklardan farq qilgan. Buni shundan ham bilish mumkinki Qo'qon xonligida ma'muriy boshqaruv tizimidagi mansablar turli xonlar davrida o'zgarib turgan yoki yangi mansab bilan almashtirilgan. Chunonchi Qo'qon xonligi tarixshunosligida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki „mingboshi“ lavozimi Umarxon

davridan boshlab bosh vazir vazifasini bajargan. Undan oldin bu lavozimda „Qo`shbegi” mansabidagi shaxs faoliyat yuritgan. Xonlik hududining turli davrlarda kengayib yoki qisqarib turishi ham xonlikning ma`muriy hududiy boshqaruv tizimiga ta`sir etmay qolmagan.

Qo`qon xonligining ma`muriy hududiy chegarasi taxtga kelgan hukmdorlarning mamlakat ichki va tashqi siyosatida olib borgan islohotlari natijasida XIX asrning 40- yillariga qadar kengayib borgan. Bu davrlar ichida xonlik hududi viloyatlarga, viloyatlar esa sarkorlik va oqsoqolliklarga bo`linib boshqarilgan. Ammo, XIX asrning 40- yillaridan keyin xonlikning ma`muriy bo`linishida ba`zi o`zgarishlar sodir bo`ldi. Endilikda viloyatlar qasabalarga, sarkorlik va oqsoqolliklarga bo`linib idora etila boshladi. Mamlakat ma`muriy-hududiy bo`linishidagi bu o`zgarishlarni Qo`qon xonlarining o`ziga yaqin amaldorlarga hokimiyat berish uchun amalga oshirgan deyish mumkin.

Xonlikning markaziy boshqaruv tizimi o`z taraqqiyotida uch bosqichdan o`tgan. Birinchi bosqich xonlikda markaziy davlat boshqaruv tizimining shakllanishi, ikkinchi bosqichda mamlakatda kechgan siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy hayot borasida rivojlanish, bu davrda hukmdorlik qilgan hukmdorlarning o`z ichki va tashqi siyosatlarida markaziy boshqaruv tizimida xonlikda mavjud bo`lmagan mansablarning joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Xonlikda bir qator islohotlarning amalga oshirilishi natijasida o`z davrining murakkab boshqaruv tizimi yuzaga kelgan. Uchinchi bosqichda mamlakatning hukmdorlari emas, ularning vasiylari tomonidan boshqarilgan, ular hokimiyatni uzoqroq vaqt qo`lda ushlab turish maqsadida boshqaruvning avtoritar uslubdan foydalangan. Markaziy boshqaruv tizimidagi ko`pgina mansab va amallarni vakolati qisqarganligi yoki tugatilganligi markaziy boshqaruv tizimining soddalashtirilganligi, ayrim mansablarning vazifasi boshqa mansabdorlarga yuklatilishi oqibatida o`z-o`zidan bu mansabning nomi ham tugatilgan.

Xonlikning mahalliy boshqaruv tizimi boshqa xonliklaridagiga o`xshash bo`lib, xonlikda bu tizimning o`ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo`lgan. Mahalliy boshqaruv tizimida ham markaziy boshqaruv tizimidagi kabi XIX asrning 50-70 yillarida murakkab boshqaruv tizimi soddalashib, turli mansab egalarining vakolatlari bitta amaldorga o`tgan. Shuningdek, Qo`qon xonligining mahalliy boshqaruv tizimi asosan mamlakat xazinasiga mablag` to`plash, ya`ni soliq tizimi bilan band bo`lganligini ko`rishimiz mumkin.

Mahalliy hukmdorlar hisoblangan hokimlar ko`p hollarda o`zi boshqarayotgan hududning iqtisodiyotiga, aholining farovon hayot kechirish uchun amaliy tadbirlarni amalga oshirish haqida o`ylamaganlar. Xonlik boshqaruv tizimidagi bunday holat aholining noroziligini kuchaytirgan. Oqibatda Rossiya imperiyasining Qo`qon xonligining shimoliy hududlari bo`lgan janubiy qozoq yerlarini jadal bosib olishiga imkon tug`ilgan.

Umuman olganda juda katta sarxadlarni birlashtirgan xonlikning ma`muriy–hududiy bo`linishi va boshqaruvida, boshqa `Orta Osiyo xonliklaridan farqli va o`xshash jihatlar mavjud bo`lgan. Farqli jihatlaridan biri, XIX asr birinchi choragida qurilgan harbiy qal`alar muhim rol o`ynaydi. Ular davlatning chegara hududlari, xonlikning dasht aholisini itoatda tutish va markaziy hokimiyat siyosatini joylarda amalga oshirishda muhim o`rin tutgan. Ushbu mavzuni o`rta ta`lim tizimida o`qitilishini samarali tashkil etish maqsadida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o`quvchilarga yetkazib berish maqsadga muvofiqdir. Bu vazifani amalga oshirish davomida turli zamonaviy pedtexnologiyalarni qo`llashga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.-b.140.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T: Sharq. 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.Маънавият. 2008.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.Ўзбекистон. 2011.
5. AAllworth. Uzbek Literary politics-New York 1964;
6. Allworth .E. The modern Uzbeks. Form the fourteenth to the present. – Stanford.1990.-p.14
7. Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy, Tarixi Jahonnamoyi//Sharq Yulduzi.1991.-N-8-b.127.
8. Baljuvoni Muhammad Ali. Tarixi Nafeiy.-T: Akademiya,2001.-b.23.
9. Barghorn L.Soviet Russian Nationalism.-New York,1956
- 10.Bobobekov H.N.Rossiya tomonidan bosib olinganmi?// Fan va Turmush , -1989,-8-son,O'rta Osiyoga qo'shib olinganmi? //Fan va Turmush,- 1989,-10-son
- 11.Boltaboyev.X. Amir Umarxonning maktubi//O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1997.27 oktabr.
- 12.Bregel Y.Central Asia.VII.In the12 th-13 th/18 -19 th //Encyclopedia iranica.-VY fas2.P..1995.
- 13.Central Asia in historical perspective.Edited by Beatrice Mans.-Oxford:West viw press, 1994
- 14.E.Bacon. Central Asiens under Russians Rule.-New York,1966;
- 15.Holdswort M Turkestan in the nineteenth century.A. Brief History of the khanates of Bukhara,Kokand and Khiva.-Oxford:1959.-P.5
- 16.Ilhomov.Z.A. Aliquli Amirlashkar//O'zbekiston tarixi .1999yil,3-son
- 17.Ishquvvatov. V.T.Qo'qon-Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi arxiv xujjatlarida.//Pedagogik ta'lim,2000,3-son
- 18.Kuropatkin.A.N. KashgariY.Istoriko-geograficheskiy ocherk strain.- SPB.:1879.-s.94.
- 19.L.Tillet. The Great Friendship.Historians on the Non- Russian Nationalities.- North Carolina,1969
- 20.Muhammad Yahyoxon//Vatan.1995.-N-16.
- 21.Muhammad Yunus Toyib. Tarixi Aliquli Amirlashkar T. 1997
- 22.Muravyov N.N. Puteshestviye v Turkmeniyu i Xivu .chast II.-1822.
- 23.Nalivkin.V.Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva...-s.208
- 24.Остроумов Н.П. Перевод ярлика Кокандского хана//ПТКЛ 21— й.Т.,1917.-С.24-26
- 25.Остроумов Перевод ярлика Сеид Муха ммед Насриддин Бахадур хана о назначении Мулли Абдуд- Каюма сина Ишана Агаева на должност Мехтера //ПТКЛ 20-йТ.:2.Т.:1916.
- 26.Politologiya ./Pod redaksiy d.e.n.prof.G.B.Poluninoy.-M.:1998.

27. Qayumov A. Adabiy muhiti, -T: Fan, 1961;
28. Qosimov Y. Qo`qon xonligi tarixi ocherklari. -Namangan/; 1994;
29. R. Conguest. Soviet Nationalities in Practice. -London, 1967;
30. Sagdullayev. A. Aminov. B. Mavlonov. O. Norqulov N. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. -T: Akademiya, 2000.
31. Scott .C. Levi. The Fergana Valley at the Crossroads of World History: The Rise of Khoqand, 1709-1822// Journal of Global History. 2007. Volume 2. N-2
- Holdsworth. M. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. -Oxford: 1959
32. Semenov. A. A. Ocherk ustroystva tsentralnogo administrativnogo upravleniya Buxarskogo xanstva pozdneyshego vremeni. - Stalinabad: 1954. -s. 60
33. Sobolev. L. M. Obzor dostupov k Xivinskomu xanstvu i kratkiye svedeniya o nem. (Voyenno-staticheskiy ocherk)// Voyenniy sbornik. -SPB.: -1873. -n-5. -S. 158.
34. Soodanbekov. S. S. Obshestvenniy i gosudarstvenniy story Kokandskogo xanstva. -Bishkek. 2000.
35. T. Rakovska-Harmstone. Russian and Nationalism Central Asia. - Baltimore, 1970; D. Hooson. The Soviet Union. People and Regions— California, 1977 va boshqalar.
36. Toshkand shahrini ulug` hurmatlik qozi kaloni Sayid Muhammad Hakimxo`ja eshon Norxo`ja eshon o`g`li ahvollari xususida// Turkiston viloyati gazet. 1890.
37. Turkiston chor mustamlakasi davrida O`zbekistonning eng yangi tarixi . birinchi kitob. -T.: Sharq, 1998.;
38. Троицкая А. Л. Каталог архива Коканских ханов XIX века -М Наука. 1967.
39. Usmonov Q, U. Jo`rayev, N. Norqulov O`zbekiston tarixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi): O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi 8-sinf o`quvchilari uchun darlik -T. 2010
40. Vohid Sh. Qo`qon xonligidagi unvon va mansablar// Sharq Yulduzi, 1995. -N3-4
41. Vohidov. Sh. XIX-XX asr boshlarida Qo`qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarixfanlari doktori... dis. -T: 1998.;
42. Yusupov. Sh. Ocherki istorii Kulyabskogo bekstva v konse XIX i nachalo XX veka, -Dushanbe: 1964;
43. Ziyov. A. O`zbek davlatchiligi tarixi. -T.: Sharq, 2001.;
44. Ziyoyev H Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.: Sharq, 1998
45. Агзамова Г. А. Раиснинг шаҳарлар ҳаётидаги урни// Ҳаёт ва қонун. 1999-№ 11-12.
46. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркистана/ Соч. Т. III. Ч 2- М: 1963

- 47.Бейсембиев Т.К. Висшая администрасияТашкента и юга Казахстана в период Кокандского ханства. 1809-1865гг...- С291-313.
- 48.Бобобеков Х.Н.Кукон тарихи.- Т. Фан. 1996.
- 49.Вохидов Ш.Сочинение Фазли Фергани «Умарнома»//Адабий мерос 1995. -№3
- 50.Валидов З. Некоторые данные по истории Фергани XVIII- го столетия// ПТКЛА год 20-й вып.2.- Т. 1916.- С 68-113.
- 51.Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском// ЗИРГО. 1856. Уша муаллиф. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед-Али до Худаяр- хани.- СПб.1856
- 52.Вохидов Ш. Холиков.Р Марказий Осиёдаги давлат бошкаруви тарихидан (XIX-XX) –Т Янги аср авлоди. 2006
- 53.Гаффоров Ф. Россия билан Кукон хонлиги уртасидаги иктисодий ва сиёсий алокалар . Дис- Т 1970.
- 54.Гейнс А. Управление Ташкентом при Кокандском владичестве// Собрание литературных трудов. Т. II – СПб. 1898.
- 55.Григоров В. Современные монеты Кокандского ханства// Труды Восточного отделения императорского археологического общества. 1856.2. 2-СПб.-С.116
- 56.Григорьев. В. Современніе монеты Кокандского ханства// Труды Восточного отделения императорского археологического общества. Вып. 2 Ч. 2- СПб. 1856
- 57.Жувонмардиев XVI_XIX асрларда Фаргонада ер – сув масалаларига доир. Т. Фан 1965
- 58.З.А. Илхомов. Кукон хонлиги тарихшунослиги айрим масалалари. Т. 2007
- 59.Зиёев Х. Туркистонда Россия тожовузи ва хукмронлигига карши кураш. –Т. 1998.
- 60.Зимин А.Первые шаги Алим- хана на государстенном пропище // Протоколи заседаний и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии. Т. ПТКЛА. Год 17 й. 1913.
- 61.59.Кун. А. Очерки Коканского ханства// Туркестанскиборник,Некоторые сведения о Ферганской долине Военный сборник- СПб. 1876-№ 4
- 62.Макшеев А.И. Показания сибирских казаков Милюшина Батарыйишкина,бывших в плену у кокандцев с 1849 по 1852 гг.//Вестник РГО.1856.
- 63.Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг маъмурий- бошкарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007.
- 64.Мухторов А. Очерк истории Ура- Тюбинского владения в XIX в. – душанбе. 1964
- 65.Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии/ Текст подготовил В.А.Ромодин.- М:Наука. 1968.

- 66.Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства
- 67.Остроумов Н.П. Перевод ярлыка Кокандского хана// ПТКЛА Год 21-й.Т. 1917 й.
- 68.П.П. Иванов Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в в.). – М. 1958.
- 69.Пантусов Н. Податные сборы в Коканде // Туркестанский сборник 1876.- № 13.
- 70.Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство.- Фрунзе. Илим. 1977.
Бейсембиев Т.К. Духовенство в политической жизни в Кокандском ханстве в XVIII-XIX в.в// М 1982.
- 71.Потанин Н.И. Записки о Коканском ханстве хорунжего Потанина// Военный журнал.1831.-№ 3-4.- С.1-35. 1830;
- 72.Саттархан Абдул- Гафаров Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его русскими // Туркестанские ведомости. 1892
- 73.Терентьев М.А. Статистические очерки.- СПб. 1874
- 74.Уринбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства. Изв. АНРУзССР. Серия общественных наук. 1957.- № 3
- 75.Уринбоев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства// Известия АН УзССР. 1957.№ 3
- 76.Хасанов А.Х. Народные движения в Киргизии в Период Кокандского ханства.- М. Наука. 1969
- 77.Хорошхин А.П. Очерки Кокандского ханства // Туркестанский сборник Т. 116-СПб. 1876
- 78.Хуршут. Е. «Мунтахаб ат- таворих» ва унинг манбалари // Узбекистонда ижтимоий фанлар. 1986. №.12
- 79.Ш. Атажанов, В. Ишкувватов. З. А.Илхомов. Узбек хонликлари тарихшунослиги. Т. 2011
- 80.Ш.Вохидов. «Кузон хонлигида тарихнавислик.» «Академ нашр» 2010 й

ILOVALAR

Annotatsiya

Bitiruv malakaviy ishida Qo`qon xonligi siyosiy tarixi va boshqaruv tizimi , boshqa xonliklar bilan o`xshash va farqli jihatlari masalalarining eng asosiy jihatlari yoritib berildi va mavzuning pedagogik texnologiyalari asosidagi o`qitish masalalari va dars ishlanmalari ko`rsatib berilgan. Uning natijalaridan o`rta ta`lim, o`rta maxus ta`lim tizimida va bakalavr ta`lim yo`nalishida xonlik tarixiga oid darslarda foydalanish mumkin.

Резюме

В данной итоговой квалифицированной работе освещены вопросы о исторической политики и управленческой структуры Коканского ханства. А также разработаны основные разработки обучения на основе педагогической технологии. Материалы данной работы можно использовать на уроках истории в среднего образования, а также в обучении исторической специальности.

Summary

Given hiccupped skilled work is illuminated questions to political history and management structure Kokandskogo khanate. As well as main developments education is designed on base of pedagogical technology. The material given work possible to use on lesson of the histories in secondary school, in fair special formation, as well as in learning the history profession.

Glossariy

	O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
1	Qo`qon xonligi	Kokandskoe khanate	Кокандское ханство
2	Siyosiy hayot	Politic life	Политическая жизнь
3	Boshqaruv tizimi	Management structure	Система управления
4	Diplomatik aloqalar	Diplomatic relation	Дипломатические связи
5	Qadriyat	Tradition	Ценность
6	Elchi	Ambassador	Посоль
7	Muxolifat	Opposed	Оппозиция
8	Siyosiy markazlar	Politic centres	Политический центр
9	Shaharlar	Cities	Города
10	Qal`a	Fortress	
11	Davlat	State	Государство
12	Kengash	Soviet	Совет
13	Hukmdor	Sovereign, ruler,king	Правитель
14	Davr	Ege	Период
15	Demokratiya	Democratic	Демократия
16	Taraqqiyot	Development	Развития
17	Vazir	Minister	Министр
18	Boshqaruv	Management	Управление
19	Tizim	Structure	Структура
20	Ma`muriy hudud	Administrative territory	Административная территория
21	Markaziy boshqaruv	Central administrative	Центральная управления
22	Mansabdor	Official,functionary	Чиновник
23	Metodik tavsiyalar	To methodical recommendations	Методические советы
24	Metodik ishlanmalar	Methodical developments	Методические работы
25	Uslub	Method	Метод
26	Texnologiya	Technology	Технология
27	Pedagogik texnologiyalar	Pedagogical technologies	Педагогические технологии

28	Universitet	University	Университет
29	Maktab	School	Школа
30	Kollej	College	Колледж
31	Mirza	Secretary,book-keeper	Секретарь
32	Urf-odat	Custom	Обычай
33	Vasiy	Guardian	Опека
34	Vakolat	Plenary,sredentials	юрисдикция
35	Hokimiyat	Power,authority	Хакимят
36	Siyosiy hokimiyat	Political mayor's offic	Политический хакимят
37	Harbiy hokimiyat	Military power	Военный хакимят
38	Qo`shin	Trops,army,forse	Армия
39	Mamlakat	Country	Государство
40	Mahalliy boshqaruv	Local administrative	Местное управление
41	Akademik litsey	Academic lyceum	
42	Kasb hunar kolleji	The collegi of professional-handicraft	Колледжи профессиональный ремесло
43	Innovatsiya		Инновация
44	II-jahon urushi	II-world wear	Второй миравай вайна
45	O'zbekiston tarixi	The historical of Uzbekistan	История Узбекистана
46	Jahon tarixi	The history of world	Всемирная истори
47	Xarita	Map	Карта
48	ijtimoiy	Social	Социальный
49	siyosiy	Politic	Политичный
50	Tarixiy meros	Historical memoryal	Исторический наследство

